

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
IJTIMOIY-IQTISODIY FAKULTETI
“IJTIMOIY-MADANIY FAOLIYAT” YO‘NALISHI**

IV-bosqich talabasi

Xayrullayeva Nigora Jamolxonovna

**Jaloliddin Rumiy tasavvufiy ta‘limotida inson ma‘naviy kamoloti
masalasi**

MAVZUSIDAGI BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

M.X. Tojiahmedova

NAMANGAN-2014

MUNDARIJA:

KIRISH		3-7
I BOB	JALOLIDDIN RUMIY IJODIDA INSON MA'NAVIY KAMOLOTI MASALASI	
	1.1. Jaloliddin Rumiylaridagi ahloqiy-estetik tushunchalarning falsafiy tahlili	8-29
	1.2. Komil inson konsepsiyasining Rumiylariga xos talqini	30-47
II BOB	JALOLIDDIN RUMIY INSON MA'NAVIY KAMOLOTI XUSUSIDAGI QARASHLARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	
	2.1. Komil insonni tarbiyalashga doir zamonaviy konsepsiyalar va Rumiylar ta'limotidagi mushtarak jihatlar.	48-60
	2.2. Jaloliddin Rumiylar falsafiy merosining yosh avlodni komillik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati.	60-71
XULOSA.		72-74
FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI.		75-77

KIRISH

Ishning dolzarbligi. Insoniyat paydo bo'libdiki, ma'naviy barkamollik masalasi har bir davr uchun birdek muhim bo'lib kelgan. Bugun biz shiddat bilan taraqqiy etayotgan, ma'naviy evrilishlar davrida yashayapmiz. Shubhasiz axborot buhronlari tufayli tobora torayib borayotgan bizning bu asrimizda ma'naviyat masalasi, qolaversa, yosh avlodni ma'naviy jihatdan yuksak tarbiya topishi yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Sir emaski, mustaqillikka erishganimizdan keyin jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shgan buyuk allomalarimizning ma'naviy merosiga katta e'tibor berila boshlandi. O'rta asr musulmon Sharqining muazzam siymolaridan biri Jaloliddin Rumiy ham ana shunday zotlardan hisoblanadi. Zero, Mavlono Rumiy qoldirgan ma'naviy meros asrlarga tatigulik ahamiyatga molikdir. Jaloliddin Rumiyning falsafiy-ma'rifiy qarashlarini milliy istiqlol g'oyamizning asosini tashqil qilgan komil insonni tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyati sifatida e'tirof etar ekanmiz, ularni har tomonlama va tizimli tarzda tadqiq etish dolzarb muammolardan biri ekanligini quyidagilar taqozo etadi:

Mazkur mavzu milliy istiqlol mafkurasining chuqur ildizlaridan biri bo'lib, asrlar bo'yi insonlarni sog'lom e'tiqod, yuksak ma'naviyat, irfoniy tafakkur, ma'rifat va madaniyat nuqtai – nazaridan tarbiyalashga xizmat qilib kelgan. Bu ta'limot mustaqillikka erishganimizdan so'ng, yanada jiddiy, oqilona va adolatli tadqiq etila boshlandi.

Birinchidan, ulug' mutafakkir, shoir Jaloliddin Rumiy falsafiy qarashlaridagi inson kamoloti ma'naviy omillarining falsafiy mohiyatini tahlil etish bilan birga, Mavlono Rumiy qarashlaridagi diniy bag'rikenglik g'oyalarining tub mohiyatini ochib berish orqali hozirgi davrdagi diniy jazava, ekstremizm, siyosiy zo'ravonlikni rad etib, tolerantlik, plyuralistik kayfiyatdagi tinch-osoyishta yashashning tobora muhimligini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, ushbu mavzu dolzarbligining yana bir xususiyati yoshlarimizda va zamondoshlarimizda milliy g'urur tuyg'usining shakllanishiga,

qolaversa xalqimiz va davlatimizning jahon sahnasidan yanada munosib joy egallashiga, oldimizga qo'yilgan maqsadlarimiz sarob emasligiga ishonch hissini uyg'otadi. Ularni ijtimoiy faollikka chorlaydi, orzu-umidlarimizni sobit qadam bilan ro'yobga chiqarishimizga ma'naviy-ruhiy madad bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Jaloliddin Rumiyning boy falsafiy-ma'naviy merosi, jahon falsafasi va madaniyatiga qo'shgan hissasi beqiyosdir. Mana yetti asr bo'libdiki, Jaloliddin Rumiyl shaxsi va merosi Sharq va G'arbni birdek qiziqtirib kelmoqda. Birgina uning "Ma'naviy masnaviy" asari o'rta asrlar Sharqidagi universitetlarda o'qitilib, bu asarni mukammal sharhlash layoqatiga ega bo'lgan ilm ahliga "masnaviyxon" unvoni berilishi fikrimizning tasdig'idir. Shunday qilib, Rumiyl merosini o'rganish tadrijini mavlono daxldor bo'lgan musulmon Sharqidan boshlashimiz kerak bo'ladi.

Mavlono Rumiyl ijodini tadqiq qilishda Kichik Osiyo, Xuroson, Movarounnahr, Eron, Hindiston va Pokistonda "Masnaviy" asariga bitilgan sharhlar muhim ahamiyatga egadir. Olmoniyalik sharqshunos Anna Mariya Shimmelning Jaloliddin Rumiyl ijodini xususan "Masnaviy"sini tadqiq etib yozgan asarlarida bu haqda yanada ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Shuningdek, G'arbiy yevropa XVIII asr oxiridan boshlab siyosiy namoyondalari orqali Mavlono Rumiyni taniy boshladilar. J. de Vallenburg, J. fon Hammer, Fredrich Rukert, Jeyms Redxoo'z, Reynold Nikolson va A. J. Orberi kabi olimlarni bunga misol qilishimiz mumkin. Umuman olganda, G'arb olamida Jaloliddin Rumiyl ijodiga bag'ishlangan juda ko'plab tadqiqotlar mavjud, ammo ularda shunchaki sharqshunos yohud tarjimon sifatidagi ilmiy izlanishlar olib borganliklarini ko'rishimiz mumkin.

Mavlono Rumiyl ijodini diniy va falsafiy g'oyalar bilan uyg'un holda tadqiq etgan olimlar qatoriga B. Furo'zonfara, Ch. Xumoi, M. Cha'fari, R. Fish, R. Xadizade, N. Odilovava boshqalarni keltirish mumkin.

Mazkur olimlarning qarashlarida Mavlono Jaloliddin Rumiy ijodi “vahtadi vujud” konsepsiyasi asosida tadqiq etilganligi e'tiborga molikdir. Shuningdek, bu tadqiqotlarda Mavlono Jaloliddin Rumiy ijodi, islomgacha bo'lgan davrdagi turli diniy – falsafiy g'oyalar bilan qiyosiy ravishda tahlil etilgan.

Movarounnaxrda tasavvuf va Jaloliddin Rumiy falsafiy merosini tadqiq qilish borasida XX asrning boshlarida rus sharqshunoslari: ye. E. Bertels, V. V. Bartold, ye. A. Krimskiy va I. E. Goldsier tadqiqotlarini misol qilishimiz mumkin. Keyinchalik I. M. Mo'minov, N. Komilov, V. Valixo'jaev, J. Xolmo'minov, G. Navro'zova, O. B. Bozorov, R. T. Shodiev, U. Uvatov kabi o'zbek olimlarining ilmiy izlanishlarini aytishimiz mumkin. Shuningdek, Rumiy ijodiga bo'lgan qiziqish mustaqillikdan keyingi yillarda yorqin ko'zga tashlanadi, bu borada Jaloliddin Rumiy asarlarining o'zbek tiliga tarjima qilinishida Asqar Mahkam, Jamol Kamol va Ulug'bek Hamdam kabi ijodkorlarning ishlari muhim ahamiyatga egadir.¹

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi, tasavvuf ta'limotini falsafiy tahlil qilish va Jaloliddin Rumiyning boy falsafiy - ma'naviy merosini o'rganish va tadqiq etishda xolisona yondoshuv, Rumiy ijodidagi ma'naviy komillik masallarini falsafiy tahlil qilish va qiyosiy o'rganish, uning falsafasiga bo'lgan Sharq va G'arb tadqiqotchilarining asarlarini qiyosiy tahlil qilish, Rumiy nazarda tutgan inson ma'naviy kamoloti muammolarining G'arb falsafasidagi mushtarak jihatlari va bugungi kundagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Jaloliddin Rumiy tasavvufiy qarashlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar, mavlaviya tariqatining yo'zaga kelishi, Rumiy ilmiy-amaliy faoliyatining natijasi sifatidagi ahamiyati, komillikka eltuvchi ahloqiy fazilatlarning Rumiycha tasnifi va tavsifi, inson ma'naviy kamolotiga ijobiy va

¹ Румий, Жалолиддин. Маънавий маснавий: Куллиёт. Ж.1.у.1. (таржима шархи билан: Таржимон А. Маҳкам; -Т.: Меҳнат, 2001.

salbiy ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar, Mavlono Rumiyning komil inson tamoyiliga doir konseptual yondoshuvlarning falsafiy tahlili, komil insonni tarbiyalashga doir zamonaviy konsepsiyalar, Rumiylar ta'limotidagi mushtarak jihatlar va uning falsafiy merosining yosh avlodni komillik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati kabi muhim jihatlarni tadqiq etishdan iboratdir.

Tadqiqot ob'ekti. Ilmiy tadqiqot ob'ektini Jaloliddin Rumiylar ijodiy-falsafiy merosi, hozirga qadar uning ma'naviy merosi xususidagi ilmiy manbalar, Rumiylar ilmiy merosini o'rganishga bag'ishlangan yurtimizdagi va xorijdagi tadqiqotlar tashqil qiladi.

Tadqiqotning predmeti. Jaloliddin Rumiylar tasavvufiy ta'limotida inson ma'naviy kamoloti masalasining talqin etilishining konseptual-metodologik va aniq faktologik tamoyillarini o'rganish va ilmiy-nazariy tahlili.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishida Jaloliddin Rumiyning tasavvufiy ma'rifiy merosi alohida falsafiy tahlil ob'ekti sifatida o'rganildi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi yana quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Jaloliddin Rumiylar ijodidagi inson ma'naviy kamoloti masalalari falsafiy tahlil qilinib, boshqa falsafiy qarashlar bilan qiyoslandi.

- Mavzuni tadqiq qilishda mustaqillik davrida O'zbekiston olimlari tomonidan ishlab chiqilgan xolisona falsafiy tamoyillar, yurtimiz va xorijdagi tasavvuf va Rumiylar ijodini o'rgangan olimlar tadqiqotlari asosida mustaqil ob'ektiv va sub'ektiv yondoshuvlarga asoslandi.

- Jaloliddin Rumiyning jahon ma'naviyati va falsafasiga qo'shgan beqiyos hissasi, komil inson tarbiyasida, yoxud inson ma'naviy kamoloti xususidagi o'ziga xos qarashlari va amaliy faoliyatini izchillik bilan tahlil qilishga harakat qilindi.

- Jaloliddin Rumiyning falsafiy qarashlaridagi ma'naviy –ahloqiy asoslaridan bo'lmish diniy bag'rikenglik g'oyalarining ahamiyati tadqiq qilindi.

- Musulmon Sharqi olimlarining Rumiylarning ijodiga bo'lgan sof tasavvufiy yondoshuvlari, G'arb olimlarining sub'ektiv yondoshuvlaridagi tajriba va yutuqlari ko'rib chiqildi va qiyosiy tahlil qilindi.

- Jaloliddin Rumiylarning asoslagan mavlaviya tariqatining inson kamoloti uchun amaliy ahamiyat kasb etuvchi omil va hozirgacha amaliy tarbiya vosita ekanligini falsafiy tahlil etishga kirishildi.

- Mavzuni tadqiq qilish barobarida Jaloliddin Rumiylarning merosining bugungi yosh avlodni komil inson ruhida tarbiyalashdagi dolzarb ahamiyati ta'kidlanib, ta'lim sohasida tasavvuf va Rumiylarning falsafiy merosining nazariy asoslaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslab berishga harakat qilindi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Ma'lumki O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng, uning tarixida yangi bir sahifa ochildi. Bu esa bizga O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etish, xalqimizning ijtimoiy-ma'naviy taraqqiy etishida asrlar davomida shakllanib, bizga meros bo'lib kelayotgan o'tmish ajdodlarimizning ma'naviy merosini har tomonlama chuqur tadqiq qilish ma'suliyatini yuklaydi.

O'rta asr musulmon olami falsafiy - ma'naviy tafakkuridagi yuksalishlarining asosi bo'lmish tasavvuf va Jaloliddin Rumiylarning ma'naviy merosida insonning ma'naviy - ruhiy olamini qo'yyadi. Shuning uchun ham insoniylikning asosini tashqil qiluvchi ma'naviy sirlarni tadqiq qilish ilmiy tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyatini belgilaydi. Tadqiq etilayotgan mavzu milliy mafkuraning diniy-falsafiy ildizlaridan biri bo'lib, undan barkamol avlod tarbiyasida foydalanish samarali natija beradi.

Bitiruv malakaviy ishining to'zish va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi «Kirish», to'rt paragrafni o'z ichiga olgan ikki bob, «Xulosa» hamda «Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati» dan iborat.

I BoB JALOLIDDIN RUMIY IJODIDA INSON MA'NAVIY KAMOLOTI MASALASI

Shaxsni har tomonlama kamol toptirish hamma vaqt jamiyatning muhim va asosiy maqsadi bo'lib kelgan. Bugungi kunda o'tmish madaniy-ma'rifiy merosini o'rganish jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan dolzarb masalalardan biriga aylangan. Chunki ajdodlarimiz qoldirgan madaniy merosda barcha davrlar uchun kerak bo'ladigan ilg'or fikrlar borki, bular bugungi taraqqiyot uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. O'tmishdagi ilg'or mutafakkirlarimizning merosi insonning yashashdan maqsadi, jamiyatda insonning tutgan o'rnini, tarbiyasi, hayoti haqidagi purma'no fikrlari yuksak tafakkur mahsulidir. Ular xalqimizning ma'naviy dunyosini yanada boyitishda, shaxsni kamol toptirishda, mustaqil davlat fuqarosining dunyoqarashini yuksaltirishda amaliy yordam berib kelmoqda.

Shu ma'noda, Bitiruv malakaviy ishimizning mazkur bobida ham sharq ahloqiy tafakkurida muhim ahamiyat kasb etgan inson ma'naviy kamoloti masalasi ayniqsa, Jaloliddin Rumiyning ijodida muhim o'rin tutuvchi ahloqiy-estetik tushunchalarning falsafiy tahlili, inson kamolotiga doir konseptual qarashlarining jahon tamaddunida tutgan o'rniga oid ilmiy masalalar o'z aksini topgan.

1.1. Jaloliddin Rumiylaridagi ahloqiy-estetik tushunchalarning falsafiy tahlili

Biron bir asar yoki ta'limotda ko'tarilgan masalalarni ilmiy-falsafiy tahlil qilishda, avvalabor, uning mohiyatini anglatuvchi tushunchalarni yoki u haqida ma'lumot beruvchi ta'riflarni chuqur tahlil va tadqiq etish, qo'yilayotgan muammoni ilmiy yechimini izlashda eng qulay vosita hisoblanadi. Shu ma'noda, ushbu bandning asosiy mazmunini tashqil etadigan Rumiylaridagi ahloqiy

tushunchalarning mazmun-mohiyati, kelib chiqishi va mazkur tushunchalarni ahloqiy-falsafiy tadqiqot ob'ekti sifatida olib o'rgangan turli davrlardagi olim va faylasuflarning qarashlarini ob'ektiv va izchil ravishda tahlil etishgina bizni ko'zlangan maqsadga yetishimizga imkon yaratadi. Qolaversa, ushbu tushunchalarning genezisi va falsafiy talqinini tahlil etar ekanmiz, birinchi navbatda ushbu tushunchalar o'z xususiyatiga ko'ra nima ma'noni anglatadiyu, amal qilish doirasiga ko'ra qanday ma'nolarni qamrab oladi? degan savollarga javob berish va ushbular atrofidagi ilmiy munozaralarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Qadimdan sharq xalqlarida ahloqiy me'yor va mezonlarga kat'iy amal qilish va uni o'z asarlari bilan targ'ib qilish masalalariga katta e'tibor berilgan. Ahloqiy me'yorlarga to'la amal qilgan xolda yashash, so'zlash, yozish bilan bog'lik masalalar muhim ahamiyat kasb etgan. Shu ma'noda, buyuk alloma Jaloliddin Rumiy o'zining «Masnaviy», «Devoni Shamsi Tabriz», «Fixi mo fixi», «Maktubot», «Majolisi Sab'a» kabi asarlarida ana shu ahloqiy tushuncha va me'yorlarni o'ziga xos uslubda ta'rif va tavsif qilinganini kurish mumkin. Shu nuktai-nazardan olib karaganda, Rumiy asarlari XIII asr axloqshunosligi tarixini, uning bir kator me'yor va tushunchalar talqinini yoritishga yordam qiladi. Alloma ko'pgina ahloqiy tushunchalarning inson va jamiyat hayotida tutgan o'rnini ko'rsatishga, ularning tasavvufiy-falsafiy talqinini, usha davr uchun urf bo'lgan nazm shaklida yetkazishga intiladi. Tasavvufshunos olim Abul Xasan Nadaviy ta'biri bilan aytganda, «Mavlono Rumiy insonning insonligini rad qilgan va bu olamdagi kadr kimmatini taxkirlagan zamon farzandi ularok maydonga chikkandir. Va Mavlono shunday zamon, shunday jamiyatda o'zining buyuk she'riyati bilan umidsiz adabiyot harobalari ichida kolgan hamda tanazzulga yo'z tutgan she'r ila kumilgan inson karomatini harakatlantira olgandir». Shu o'rinda ta'kidlash joizki, tasavvuf axloqshunosligida muhim o'rin tutuvchi ahloqiy-estetik tushunchalarni anglash va ularni falsafiy taxlil qilish uchun Mavlono Rumiy asarlaridan xabardorlik talab qilinadi. Bu xakda,

Akademik Krinskiy: «Xech mubolagasiz, «Masnaviy» asarisiz tasavvufni anglash dushvordir» degan edi. Masalan, “Masnaviy” Biroq, u ba'zan ayrim ahloqiy me'yorlarning ma'lum bir tomonini yoki ma'lum bir jixatlarini, xatto ma'lum bir xususiyatini ko'zda tutib fikr yuritadi. Ayrim o'rinlarda esa ba'zi ahloqiy tushunchalar haqida ma'lumot beradi-yu, lekin ularniig talqini haqida fikr yuritmaydi yoki uchinchi bir mulohazani bayon etish bilan kifoyalanadi, chunki hadislar haqida ob'ektiv va xakkoniy fikr yuritish shuni takozo qilar edi. Jaloliddin Rumiy ne-ne mashakkatlar bilan ushbu hadislarini axloqshunoslik nuqtai nazaridan tasniflaganini “Masnaviy”ning ichki to'zilishidan ham kurish mumkin. Yukoridagi fikrlarni konkretlashtirish uchun misollarga murojaat qilaylik. Masalan, mazkur asardagi halollik, rostgo'ylik, xilm, mehr-oqibat va shu kabi tushunchalarni yoritish uchun kullagan uslubini boblarining nomlanishidan ham bilish mumkin. Bu jixatlar xassos olim Jaloliddin Rumiyning ahloqiy me'yor va tushunchalarni talqin qilishda mumkin kadar tushunarli tarzda yetkazishga harakat qilganini kursatadi deyish mumkin.

Jaloliddin Rumiy axloqshunoslikning tushuncha va me'yorlari talqini haqida so'zlaganida, ba'zan ularga birmuncha tuhridan-tuhri munosabatda bo'ladi, tug'risi, XIII asr sharoiti va Jaloliddin Rumiyning davri shuni takozo qilar edi. Biroq, shunga karamay, Jaloliddin Rumiy axloqshunoslikning tushunchalariga ham, me'yorlari talqiniga ham imkoni boricha axloqshunoslik fani nuqtai-nazaridan ob'ektiv talqin qilishga intiladi. Jaloliddin Rumiy bu o'rinda yozishicha, har qanday gapga chechan, ya'ni «axli fasoxat», go'zal axloq egasi bo'lgan odam ham Muhammadga teng kelolmagan, u kishiga tan bergan. Biz hadislar misolida Jaloliddin Rumiy gaplarining mutlak tuhri ekaniga ishonamiz. Payg'ambar hadislarini musulmon mamlakatlarida axloqshunoslik tarakkiyotiga, xususan pandnoma-ahloqiy asarlarga katta ijobiy ta'sir kursatdi. Shu ma'noda, “Masnaviy” asari ham ilmiy-badiiy adabiyotning yuksak namunasi sifatida unda boshqa asarlardan farqli ravishda Qur'on va hadislarining badiiy talqini orqali bevosita insonga murojaat qilinadi, inson masalasi, uning

xulq-ahloqi masalasi diqqat markazida turadi. Ya'ni halollik, rostgo'ylik, xilm, go'zal xulqli bo'lish bilan bog'liq ahloqiy me'yorlarning hammasi "adab ilmi"ga ham to'la taalluqli bo'lib, faqat bu tushuncha me'yorlar bu o'rinda Qur'on oyatlari, hadislar va hikmatli so'zlar orqali ifodalanadi. Biron fikrni oddiy so'zlar bilan jungina aytib qo'ya qolish bilan uni ilmiy taqqoslashlar, o'xshatishlar orqali, ba'zi hollarda oyat va hadislar orqali ifodalash urtasida katta farq bor. Sharq ilmiy-badiiy adabiyotlarida Jaloliddin Rumiydan boshlab to bizning kunlarimizgacha olim va adiblar o'z ijodlarida pand va nasixatga oid hadislarga katta o'rin berganlar. Ular shu asosda inson tarbiyasi, xulq, axloq, bilan bo'g'lik hamma gaplarini chiroyli, yokimli ifodalashga intilganlar. Ular asarlarining abadiylik siri, bizning davrimizda ham sevib uqilayotganligining bosh sababi ko'proq shunda. Masalan, Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy" asarini ham.

Jaloliddin Rumiy o'zining "Masnaviy" asarida kup o'rinlarda hayotdagi ezgulik bilan bog'lik oddiy bir ahloqiy tushunchani ifodalaydi. Bu bilan Jaloliddin Rumiy aytmoqchiki, inson abadiy yashamaydi, o'lim xak shunday ekan, odamlarga yaxshilik qil, hayotda shu qoladi. Lekin Jaloliddin Rumiy shu bir "Masnaviy" asarida axloqshunoslikning bu kabi tushuncha va me'yorlari talqinini bu qadar juda ilmiy, jonli va go'zal ifodalashga erishgan. Uningcha, har bir inson, u kim bo'lmasin, bir kun kelib shunday go'zal hayotni, yuragiga yaqin kishilarni, bolalarini tashlab, u dunyoga ketishga majburdir. Binobarin, uni ongli ravishda chiroyli tark etish kerak. hayotni, ya'ni bu gulshanni chiroyli tark etishning birdan bir yo'li esa, uningcha, odamlarga yaxshilik qilish, shu yo'l bilan yaxshi nom qoldirish, ya'ni «yaxshilik bila ot» chiqarishdir.² Shundan kelib chiqib, Jaloliddin Rumiy o'z kitobxonini yashashning moxiyatini falsafiy jixatdan chuqur idrok etishga, narsa va hodisalarning mohiyatini to'g'ri tushunib, shunga qarab yashashga da'vat etmoqda. Buning ustiga Jaloliddin Rumiy axloqshunoslikning tushuncha va me'yorlari talqinini oyat va hadislar

² Жалолиддин Румий. Маънавий ва маснавий. 2-жилд. Жамол Камол таржимаси. Т., 2003-йил, 114-бет.

bilan, ya'ni ma'lum bir maqsad bilan ifodalamokdaki, bular hammasi u kutargan ahloqiy muammolarning o'ta dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib, asarni juda ta'sirli chiqishini ta'min etgan.

Jaloliddin Rumiy o'z ijodida axloqshunoslikning tushuncha va me'yorlari talqiniga juda katta o'rin bergan. Ma'lumki, Jaloliddin Rumiy "Masnaviy" kabi bir qancha asarlari shu yo'nalishda. Bu asarlarining hammasida axloqshunoslikning tushuncha va me'yorlari talqinini Jaloliddin Rumiy oddiy gaplar bilan emas, san'atkorlik bilan, xikoyat va qissalar asosida mahorat bilan yoritib berishga katta ahamiyat karatgan. Jaloliddin Rumiy mazkur ahloqiy tushuncha va me'yorlar tufhisida gap ketganda, bitta so'z odamni o'limdan olib kolishi, bitta so'z bilan ulgan odam tirilishi, bir necha so'zdan tashqil topgan kalimai shaxodat orqali esa kofir musulmon bo'lishi, o'z so'zlash qobiliyati va xulqi bilan inson xayvondan farq qilishi mumkin, deydi. Ahloqiy tushuncha va me'yorlarni shunday yuksak ta'riflagan Jaloliddin Rumiy hadislarni bundan ham ortiq, baxolagan, kadrlagan va undan pand-nasihat mavzuidagi asarlarida kimmatbaho javohirlardan foydalangandek istifoda etgan. Shu nuqtai nazardan biz uluf allomaning "Masnaviy" asariga nazar tashlar ekanmiz, "axloqshunoslikning tushuncha va me'yorlari talqini olamigagina emas, balki o'zimizni Payg'ambar alayxissalomning go'zal axloqlar bilan xulqlangan olamiga kirib kolganday xis etamiz". Mavlono Rumiy asarlaridagi axloqshunoslikning tushuncha va me'yorlari talqinini tadqiq etishda shu narsani nazarda qochirmaslik kerakki, aksariyat hollarda, hadislarni badiiy shakllardagi ifodasini e'tibordan soqit qilmaslik lozim.

Jaloliddin Rumiy ahloqiy tushuncha va me'yorlar bilan bog'lik masalalar yuzasidan mulohaza yuritar ekan, ma'lum ahloqiy fazilatlarni maktasa, ba'zi salbiy illatlarni tankid qiladi, ba'zi o'rinlarda ta'rif tavsifga berilsa, boshqa bir o'rinlarda sharq badiiyatining koidalariga amal qilib, rivoyatlar keltiradi yoki ba'zi toifa odamlar haqida so'zlab, ularning obrazlarini chizadi. Masalan, Jaloliddin Rumiy dinu iymondan uzoqlashgan, tuban ahloqli insonlarning

topajak okibatini tasvirlar ekan, u oyat va hadislarlarda aytilgan xujdjatlardan foydalanadi va ularni telba itga, yirtqich qoplonga qiyoslaydi, goh nafs itining qo'liga tushgan mahluqqa taqqoslaydi. Jaloliddin Rumiyy bunday muruvvatli odamlarni g'oyat qadrlagan. Qur'on va hadislarida ham bunday olijanob kishilar sha'niga ko'p yaxshi gaplar aytilgan. Jaloliddin Rumiyy ham shu toifadagi odamlardan edi. U sahiy odamlarni ta'riflashda davom etar ekan, aytilganlar bilan qanoatlanmaydi. U oyat va hadislar asosida sahiy odamlarning umumlashgan obrazini yanada yorqinroq ochib berishga erishgan. Ushbu usuldan Jaloliddin Rumiyy asarining barcha o'rinlarida ham muvaffaqiyat bilan foydalangan. Hadislarda ham inson kamolotining eng muhim ko'rinishlaridan sanalgan insonning saxovatli bo'lishiga katta e'tibor berilgan. Saxovatli inson jamiyat taraqqiyotiga ham katta xissa qo'shadi, uning ravnaqi uchun jon kuydiradi. Zero, hadislarida odob-axloq talqini yuksak insoniy fazilatlarni asos qilib olish vositasida berilgan. Aytish mumkinki, bu talqinda diniy axloqdan ko'ra dunyoviy odob-axloq tamoyillari ustuvordir. Asarning qanoat haqidagi bobida bundan boshqa ham bir necha xil usullarni qo'llagan. Bunday talqin usuli bilan alloma o'z fikrini tasavvuf ruhida yorqin ifodalashga erishgan.

Jaloliddin Rumiyy asar davomida o'z so'zining ustidan chiqqan. Chindan ham "Masnaviy" asaridagi ko'plab hadislar, Jaloliddin Rumiyyning boshqa asari "Ichindagi ichindadir"da ko'rganimizday, hadislar ipga terilgan noyob duru javohirlarday, o'z badiiyati bilan o'zidan nur taratib turgandaydir. Shu ma'noda, "Masnaviy" asarida axloqshunoslikning tushuncha va me'yorlari talqini qo'llanish ham diqqatga sazovordir. Masalan, ushbu asarning ahloqiy fazilatlar va illatlar ta'rifiga bahjishlangan boblarida alloma avval ahloqiy fazilatlarni dunyo va ohiratda ham tuganmas bo'lgan nurga uxshatadi, salbiy illatlarni esa tuganmas zulmatga qiyoslaydi.³ Bunday o'xshatish va kiyoslash san'ati Jaloliddin Rumiyy ijodida juda kup bo'lib, ularning hammasidan ham yaxshi foydalangan. O'tmish ilmiy-badiiy adabiyotimizda esa allomalarning

³ Жалолиддин Румий. Маънавий ва маснавий. 2-жилд. Жамол Камол таржимаси. Т.: 2003, В 258

mahoratiga shu san'atlardan qanday unumli va mahorat bilan istifoda etganlariga karab baxo berganlar.

“Masnaviy”ni o‘kir ekanmiz, ko‘z o‘ngimizda axloqshunoslikning tushuncha va me'yorlari talqini oyat va hadislar asosida namoyon bo‘ladi. Alloma bularning har birini o‘ziga xos xususiyatlari bilan ochib beradi. U oyat, hadis va ulug’ zotlarning hikmatli so‘zlari va boshqa usullar bilan axloqshunoslikka oid muammolarning mohiyatini chuqurroq ochish va mantiqiy xulosalar chikarishga, ta’rif va tavsifini yanada konkretlashtirishga erishadi. Shu bilan birga, Jaloliddin Rumiyl xulq-odob masalalarini ham badiiy tasvir yo‘li bilan, turli usul va vositalardan foydalanish bilan ifodalaydi.

“Masnaviy”da kuplab hadislar bilan birga katta va kichik hajmli rivoyatlar ham bor. Bular o‘z navbatida asarda ko‘yilgan biror ahloqiy muammoni yoritishda va axloqshunoslikning tushuncha va me'yorlarini talqin qilishda Jaloliddin Rumiylga ko‘rgazma sifatida xizmat qilgan. Masalan, odob-tavozuniing foydasi va xudbinlik hamda mutakabbirlikning zarari to‘g‘risida bir necha hadislar keltirilib, unda bir-biriga karama-karshi bo‘lgan fazilat va illatlarni ilmiy talqini yaratilgan.

“Masnaviy”dagi rivoyatlar qo‘yilgan masalalarga, mulohazalarga yakun yasash, «qissadan xissa chikarish» vazifasini bajaradi. Masalan, Jaloliddin Rumiyl johillar haqida so‘zlar ekan, o‘z mulohazalarini «johillikka oid» rivoyati bilan xulosalaydi. Asarning ba’zi joylarida axloqqa oid hikoyatlardan fikrni isbotlash usuli sifatida ko‘llaniladi. Bu usul asarga ma’lum ohang, musiqiylik bag‘ishlab, uning o‘qilishini ravonlashtiradi va ta’sir kuchini oshiradi. Jaloliddin Rumiyl “Masnaviy”da xalq ijodkorligining mana shu usulidan muvaffaqiyat bilan foydalanib, asarning badiiy kimmatini yanada oshiradi. Binobarin, bular kitobat ishida san’atkorlikda buyuk iste’dodi bilan shuxrat qozongan Jaloliddin Rumiyning adib sifatida ham katta mahoratga ega ekanini ko‘rsatadi. Biroq shuni ta’kidlash lozimki, Mavlono Rumiyl o‘z asalarida ahloqiy tushunchalarni tahlil etish bilan birgalikda estetikaning mezoniy tushunchalarini ham turli usul

va vositalar orqali tahlil etadi. Masalan, mashhur Olmoniyalik olimi Anna Mariya Shimmel “Masnaviy” asarida ustida olib borgan tadqiqotlarida ayrim estetik muammolarni yoritishda va tushuncha va me'yorlarni talqin qilishda Jaloliddin Rumiyning ushbu biz tadqiq etayotgan asarlaridan keng foydalanganligini ta'kidlaydi.

Biz tasavvuf ta'limoti yoxud Rumiyning ijodidagi ahloqiy-estetik tushunchalarni falsafiy tahlilini o'rganayotganimizda ba'zi jihatlarga alohida to'xtalib o'tishimiz kerak bo'ladi. Ma'lumki, Jaloliddin Rumiyning tasavvufning falsafa bilan bog'liq bo'lgan bir davrda ijod etgan. Bu davrda yashagan ko'pgina so'fiy mutafakkirlar jumladan; Ibn Arabiy, Abu Homid Muhammad G'azolli, Farididdin Attor, Aziziddin Nasafiy, Yahyo Suhravardiylar tasavvufni yangi bir pog'onaga ko'tarib, uni falsafa bilan uyg'unlashtirgan holda ijod qilganlari aytib o'tilgan edi. O'z navbatida Jaloliddin Rumiyning ham shular jumlasidandir. Lekin Mavlono Rumiyning o'zlarini faylasuflikka da'vogar deb bilmaydilar va biz ham shundan yiroqmiz. Biroq, bu uning qarashlarini falsafiy tahlil qilishimizga monelik qilmaydi deb o'ylayman. Jaloliddin Rumiyning ijodi yohud falsafiy qarashlarining asosida ilohiy muhabbat yotadi. Buni biz ul zotning har bir satrida ko'rishimiz mumkin; «Sevilgan kishi go'zaldir. Aksincha bo'lmaydi. Ya'ni hamma go'zallar – da sevilavermaydi va sevilishi shart ham emas. Go'zallik sevimlilikning bir jo'z'idir. Sevimli bo'lmoq asldir. Bu bo'lgandan keyin go'zallik ham mavjuddir. Har narsaning jo'zi ya'ni qismi butunidan ayri bo'lolmaydi, ular birgadir, ya'ni qism butun bilandir. Majnun zamonida ham go'zallar bor edi va ular Laylidan husnliroq edi. Biroq Majnun ularni sevmaydi. Unga « Laylidan ortiq go'zallarni ko'rsataylik, beraylik » dedilar. Majnun esa, « Men Laylining suratini sevganim yo'q va u ko'rinishdangina iborat emas. Layli mening qo'limda bir qadah kabidir. Men bu qadahdan sharob ichayapman, chunki men sharobga oshiqman. Sizning ko'zingiz faqat qadahda, ichidagidan xabaringiz yo'q, siz «g'ofilsiz » dedi. Mening qo'limga oltin bezakli bir qadah tutqazsalaru, ichidagi sharobdan boshqa narsa bo'lsa. Buning nima foydasi bor?

Men uchun sharob to'la eski va siniq bir idish, oltin bezakli bu va buning kabi yuzta qadahdan yaxshiroqdir. Qadahdagi sharobning mazasini bilish uchun ishq va shavq kerak bo'ladi. Chunonchi, o'n kundan beri och yurgan odam bilan kunda besh mahal ovqatlanib yurgan to'qning nonga qarashlari bir xil emas. Chunki to'q nonning suratini ko'rsa, och uning siyratini ya'ni mohiyatini ko'radi. Non qadax bo'lsa mazasi qadaxdagi sharob kabidir. Biroq sharob faqat ishtaxasi va shavqi bo'lgan ko'zgagina ko'rinadi. Sen ham o'zingda ishtaha bilan shavq hosil etki, faqat suratni emas, balki siyratni ham ko'rgaysan. Bunday odamlarning surati qadahlarga o'xshaydi, ilm va bilimlari ana shu qadahlarga solingan naqshlar kabidir. Qadah sinishi bilan naqshlardan asar ham qolmaydi. Demak, qiyomat qadah singari bo'lgan vujudlardagi sharobdadir va bu sharobni ichgan kishi uning o'lmas yaxshi narsa ekanligini biladi».⁴

Rumiyning ushbu fikrlari haqiqiy ishq suratga emas, balki siyratga nisbatan bo'ladi va shundagina inson bu ishq vositasida o'zini va butun olam va Allohga bo'lgan buyuk ishqni anglaydi. Hyech kimga sir emaski, muhabbat va go'zallik tushunchalari Sharq estetikasi va G'arb estetikasining ham muammoli masalalaridan hisoblanadi. G'arb tafakkurida bu tushunchalar turlicha ta'riflanadi. Biz bu ta'riflardan estetik mohiyatni anglashimiz mumkin. Tasavvufda yohud Rumiylar ijodida bu tushunchalar estetik mohiyat kasb etmasdan balki butun olam va inson falsafiy mohiyatining asosini tashqil qiladi. Yuqorida Mavlono nazarda tutgan qadah va sharobni turlicha sharhlash mumkin. Kichik miqyosda olib qaraydigan bo'lsak, insonning mahbubasiga bo'lgan muhabbatida go'zallik ham, mohiyat ham o'tkinchi sifat va belgilar darajasida bo'lishi mumkin. Agar inson o'z yorini uning tashqi go'zalligiga qarab sevsa, uning muhabbati haqiqiy muhabbat emas, balki o'tkinchi ehtirolardan iborat bo'lib qoladi. Rumiylar aytganlaridek, faqat qadahning naqshlarini ko'radi, lekin uning ichidagi sharobni ya'ni mohiyatni ko'rmaydi va

⁴Қаранг. Жалолиддин Румийнинг Фийҳи мо фийҳи. (Ичиндаги ичиндадур) Улуғбек Ҳамдам таржимаси. Т.: Янги аср авлоди, 2001, 72-73 бетлар.

anglamaydi. Qachonki, inson o'z yorini chin qalbdan sevsa, bu muhabbat haqiqiydir. U yoriga bo'lgan muhabbati vositasida o'zini anglaydi va jamiki insonlar va Allohga bo'lgan buyuk ishqni his qiladi.

Shu o'rinda Mavlono Rumiylarning fikrlarining isboti sifatida Ibn Sinoning muhabbat haqidagi qarashlariga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Ibn Sino bu hakda; « Inson ruhi doimo yuksaklikka intiladi lekin inson ruxining bir yo'zi pastga qaragan bo'ladi. Agar insonning yoriga bo'lgan sevgisi o'tkinchi ehtiros va hissiy mayllardan iborat bo'lsa, uning ruhi yuksaklikka qarab emas, tubanlik sari yo'z tutadi va o'z mohiyatini anglay olmaydi. Qachonki inson mahbubasiga bo'lgan muhabbatini qalban his etolsa, uning ruhi o'z asli bo'lmish yuksaklik sari parvoz etadi va barcha mohiyatlarni anglaydi».⁵ Agar biz Rumiylarning nazarda tutgan yuqoridagi fikrlarni keng miqyosda tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin; Dunyo bir qadax, uning moddiy taraqqiyoti uning naqshlari kabi o'tkinchi sifatlaridan darak beradi. Ichidagi sharob esa uning haqiqiy mohiyatidan, sir asroridan bizga xabar beradi. Bugungi insoniyat o'zining moddiy taraqqiyotini juda yuksak deb biladi va dunyoning o'tkinchi go'zalliklari va lazzatlariga mahliyo bo'ladilar, bular esa xuddi Rumiylarning nazarda tutgan Majnunga «Laylidan go'zalrok go'zallarni ko'rsatmoqchi» bo'lgan kishilarga o'xshaydi. Ular hayotning, go'zallik va muhabbatning mohiyatini ham o'tkinchi sifat va ehtirolarda deb biladilar. Shu tariqa o'zlarining va dunyoning mohiyatlaridan ya'ni qadax ichidagi sharobdan bexabardirlar. Ko'rinib turibdiki Jaloliddin Rumiylarning go'zallik va muhabbat estetik tahlilidan buyuk bir falsafiy mohiyatlarni kashf etishimiz mumkin.

Rumiylarning qarashlarining o'ziga xos jihatlari shundaki, u barcha insoniy sifatlar, mohiyatlar va borliqning sifat - mohiyatini majoziy obraz va timsollar bilan tushuntiradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, uning asarlariga mana yetti asr bo'libdik ne – ne allomalar tomonidan sharhlab kelinadi.

¹Мухаммад Истеъломий. Жалолидин Румий хакида. Техрон. 2001 В 62

Shu o'rinda savol tug'iladi, Jaloliddin Rumiylar kuylagan ilohiy muhabbat va go'zallikning asl maqsadi nima? Bu savolga ul zotning «Masnaviy ma'naviy» asaridan shunday javob topishimiz mumkin.

*Guftamash: «Pushida xushtar sirri yor,
Xud tu dar zimni hikoyat go'sh dor.*

Ya'ni; Men Xusomuddin Chalabiylar dedim: «Yorlar sirining bo'lmagi yaxshidir. Toki nomahramlarning nazari unga tushmasin. Sen esa hikoyat qatiga yashiringan yor sirlarini hushyorlik qulog'i bilan eshit, angla».

*Xushtar on boshad, ki sirri dilbaron,
Gufta oyad dar hadisi digaron.*

Tarjimasi:

*Xushdir ulkim, yorlar asroridan
Bo'lsang ogoh o'zgalar guftoridan.⁶*

Ya'ni; Ilohiy haram mahbubalarining asrorini o'zgalardan eshitgan ma'qulroq. Zero, nomahramlar va begonalar ularning yorliq sinoatidan voqif bo'lmashlar. Hakikiy tasavvuf aytmoq emas topmoqdir. Kimlarki so'ylamishdir tasavvuf haqiqati emas, uning odobi hakida so'ylamishdir.

Jaloliddin Rumiylarining «Ichindagi ichindadir» asarida bu satrlarning qo'yidagicha sharhini topishimiz mumkin;

«Haq ta'olo bu niqoblarni jumla jonning omonligi uchun yaratdi. Haq o'z jamolini niqobsiz namoyon etsa, biz unga tob berolmaymiz. Xuddi shunday, inson xalqlar ota-onasiga yor-birodarlariga hamda yerlar va ko'klarga, bog'lar va tog'larga ko'shklarga, bilimlarga, ishlarga, ovqatga, sharobga va hokazolarga

⁶ Жалоліддин Румий. Маснавий 5 жилд. «Ал худо» нашриёти. –Т 2004, В 39-40

bo‘lak orzu, sevgi va shafqatning hammasi aslida, Tangrini sevmoq va bilmoq ekanini biladi. Bularning barchasi niqobdir. Odamlar bu dunyodan ko‘chib, Shohni niqobsiz ko‘rishlari bilan bularning barchasi pardalardan iboratligi va istaganlarining barchasi, aslida bir narsa ekanligini ko‘rar va anglarlar. Shu tarzda ularning butun qiyinchiliklari hal etiladi va ichlaridagi har turli so‘roqlar va mushkulotlarning javobini oladilar. Masalan, qish kelishi bilan odamlar issiq kiyimlarga o‘ranadilar, daraxtlar ham sovuq urmasligi uchun bor-yo‘g‘ini ichiga olib saqlaydi. Bahorning kelishi ularning butun savollariga javob bo‘ladi. Tangri bu pardalarni bir savobga tayanib yaratmishdir. Alloh jamoli niqobsiz ko‘rinsa, biz unga qarashga toqat qilolmaymiz va undan nasibamizni ololmaymiz. Biz ana shu niqoblar vositasi bilan yordam ko‘rayapmiz, yaxshini yomondan ayriyapmiz. Holbuki pardasiz tajalli etsa tog‘ ost – ust bo‘ladi. 7»

Yuqorida keltirilgan «Masnaviy ma'naviy» sharhlaridan shu narsa ayon bo‘ladi. Barcha muhabbat va go‘zallikning asli Alloxdir. Buyuk ishqqa doxil bo‘lishi uchun esa inson juda ko‘p mashaqqat chekishi lozim bo‘ladi. Bundan ko‘rinadiki insondan tortib olamdagi eng kichik zarralargacha Allohning go‘zalligi aks etgan. Ular orasidagi uyg‘unlik esa muhabbat hosilasidir. Agar inson o‘z atrofidagi yaqin kishilarini sevolmasa, muhabbat asosiga qurilgan olamiy uyg‘unlikka qo‘shilolmaydi va barcha go‘zalliklardan mosuvo bo‘ladi. Uning yuragi xuddi bir go‘sht parchasi bo‘lmay unda muhabbat pinhondir inson esa o‘z qalbidagi bu muhabbatni kashf etishi lozim bo‘ladi. Lekin inson shuni unutmasligi kerakki, borliqdagi barcha sifat va mo‘jizalarni moddiylik nuqtai nazari bilan baholamasligi kerak. Afsuski hozirgi inson moddiyat asiri bo‘lib qolmoqda. U o‘z ehtiyojlarining quliga aylanib qolgan. U mangu iste'molchi sifatida dunyodagi mavjud ne'matlarni o‘zi hohlaganicha tasarruf va isrof etadi. Chunki insonning his tuyg‘ulari moddiylashagan bu dunyoda tobora dag‘allashib bormoqda. Bugungi insoniyat oldida turgan barcha muammolarni

⁷. Жалололиддин Румий. Фийҳи мо фийҳи. (Ичиндаги ичиндадур) Улуғбек Ҳамдам таржимаси. Т.: Янги аср авлоди, 2001,В 76.

biz uning qalbidagi go‘zallik va muhabbat hislarining so‘nib borishidan izlasak yaxshi bo‘lardi. Qalbida muhabbat bor inson hotirjamlikka erishadi va o‘zining olamning bir zarrasi ekanligini his qiladi. Aks holda bu dunyoda ne ish bilan Mashg‘ul bo‘lmasin huzur –halovat topolmaydi.

Bu xususda Rumiyy insoniyatga qarab shunday xitob qiladi: «Insonda shu qadar ulkan ishq, hirs, orzu va dard bordirki, yo‘z minglarcha olam o‘ziniki bo‘lsa ham, ko‘ngli tinchimaydi. U ishda, san'atda, ilmu nujumda, hakimlikda mashg‘ul. Biroq bularning hyech biridan ho‘zur topolmaydi. Chunki istagan narsasini qo‘lga kiritolmagan. Yor diloromlar, ya'ni ko‘ngilni tinchlantiruvchi demakdir. Shunday ekan, ko‘ngil boshqa nima bilan qanday hotirjam bo‘lsin? Zavq va orzular zinapoyaga o‘xshaydi. Zinapoyalar o‘tirib dam olishga moslashmagan, aksincha ustiga bosib o‘tiladi xolos. Umrni shu zinalarda behuda o‘tkazmaslik uchun g‘ofillikdan tez uyg‘ongan va ahvolining mohiyatini anglab yetgan zot qanday baxtli.»⁸

Mavlono Rumiyyning yetti asr muqaddam bashariyatga qilgan bu nasihatlari xuddi bugungi insonga qarata aytilgandek go‘yo. Bugun bizning har birimiz nima bilandir bandmiz. Birgina fan va ijod dunyosini olib ko‘raylik, tan olib aytish kerakki ilmning barcha sir – asrorlarini ilmiy darajalar ta'masida o‘rganamiz. Undagi haqiqatlarni o‘z qalbimizdan o‘tkazmaymiz ya'ni his qilmaymiz. Hozir adabiyot yoxud san'atda ham ahvol shu. Masalan sevgi muhabbat haqida yonib kuylayotgan san'atkorga e'tibor bersangiz, u bizga muhabbat olamining siyrati emas balki suratidan bizga kuylayotganiga amin bo‘lasiz. Yoxud axloq borasida ham biz ahloqiy tushunchalarning mohiyati xususida bahs yuritamiz lekin, ushbu tushunchalarni biz his qila olmaymiz va jamiyatning ijtimoiy talabi bilan ularga ko‘r-ko‘rona ergashamiz. Shuning uchun Mavlono Rumiyy umrimizni behuda o‘tkazmaslik va ezgu tushunchalarga ko‘r-ko‘rona ergashmasdan, balki uni qalban his qilishga chaqiradi.

⁸ Жалолиддин Румий. Фийҳи мо фийҳи. (Ичиндаги ичиндадур) Улуғбек Ҳамдам таржимаси. Т.: Янги аср авлоди, Т -2001, В 65

Jaloliddin Rumiyl ijodidan bahramand bo'lar ekanmiz, buyuk tasavvufiy haqiqatlarni kashf etamiz. Eng muhimi Rumiyl falsafiy yoxud estetik tushunchani sharhlar ekan, ularning sifatlariga emas haqiqiy mohiyatiga e'tibor qaratadi. Masalan, muhabbat va go'zallik tushunchalari insoniyat paydo bo'lgandan buyon sharhlab kelinadi. Albatta har bir mutafakkir bu tushunchalarni o'ziga xos tarzda tushuntirishga harakat qiladi. Rumiylning o'ziga xosligi shundaki, bu tushunchalarni har bir kishi tushunadigan sodda tilda hayotiy misollar va majoziy obrazlarda ifodalab beradi. Shuning uchun Rumiyl falsafiy qarashlarida badiiy obrazlilik xususiyatlari yetakchilik qiladi. Chunki tushunchalar badiiy vositalar yordamida ifodalansa, o'quvchi tomonidan oson tushuniladi va ta'siri ilmiyl falsafiy iboralarga qaraganda kuchliroq bo'ladi. Shu o'rinda surat va siyrat haqida Jaloliddin Rumiyl fikrlarini keltirib o'tmoqchimiz;

«Bu o'quvchi Qur'onni to'g'ri o'qiydi, biroq faqat suratini. Uning ma'nodan xabari yo'q. Agar unga ma'no anglatilsa ham baribir o'qiyveradi. Bu esa shunga o'xshaydi. Qo'lida qundo'z ushlab turgan odamga unikidan yaxshiroq bir qundo'z bersangiz, olmasa demak u qundo'zni bilmaydi. Chunki unga kimdir qundo'zni qundo'z ekanligini aytgan xolos va bu odam taqliddan qo'lga qundo'z olgan. Yana bir misol: Yong'oq o'ynayotgan bolaga yong'oq mag'zini yoki yog'ini bersangiz olmaydi. Chunki bola yong'okdan chiqayotgan ovozga ishqiboz. Mag'iz va yog' esa sas chiqarmaydi. Allohning xazinalari va ilmlari behisob. Qur'onni tushunib o'qigan odam Tangrining boshqa kitobini (Qur'onni) nega qabul qilmasin? Qur'on: «Ayting: «Agar barcha dengiz Parvardigorimning so'zlari (ya'ni ilmu hikmatlarini bitish) uchun siyoh bo'lsa va yana shuncha siyoh keltirsak ham Parvardigorimning so'zlari bitishidan oldin u dengizlar qurib bitar »⁹ deya buyuradi. Qur'on ellik dirhamlik siyoh bilan yozilishi mumkin. Qur'on Allohning ilmlaridan bir parcha xolos. Uning butun bilimi bundangina iborat emas. Axir, bir attor qog'ozga ozgina dori o'rab bersa, sen: «Butun do'kon shuning ichidami? » deysanmi? Bu axmoqlik bo'lar edi.

¹ Куръон Карим, 18 сура. 109 оят. Абдулазиз Мансур таржимасида.

Nihoyat, Muso, Iso va yana boshqalarning zamonida Qur'on mavjud edi. Haqning kalomi bor edi. Faqat arabcha emasdi.

Rivoyat qiladilarki: Payg'ambar zamonida as'hobdan kimda – kim yarimta yoki bitta sura o'rgansa uni ulug' odam hisoblab, «yarimta yoki bitta sura biladi» deya barmoq bilan ko'rsatar edilar. Chunki ular odatda Qur'onni yeyishardi (hazm etishardi). Bir yoki yarim botmon nonni birdaniga yeyish mushkul ish. Biroq, oz-ozdan chaynab minglab eshakka yuk bo'ladigan nonni ham yeyish mumkin. Payg'ambar: «Qancha Qur'on o'qigan bordirki Qur'on ularga la'nat aytadi» demaganmidi? Bu Qur'onni o'qigan ammo, ma'nosini tushunmagan kimsa haqidadir.¹⁰»

Mavlononing ushbu fikrlari shundan dalolat beradiki ilm faqat suratdan iborat emas, balki uning mohiyati siyratidadir. Alloh taolo bu olamda insondan tortib uning ko'zi ilg'amas zarralargacha o'ziga xos surat ato etdi. Bizning bu hayotdagi asosiy muddaomiz borliqning suratini emas, uning siyratida pinhon bo'lgan ma'no-mohiyatlarni anglashdan iborat bo'lmog'i kerak.

Jaloliddin Rumiy bundan tashqari insonlarning ichki his-tuyg'ulari va tasavvurlari to'g'risida quyidagi fikrlarni bildiradi: «Odamlar Alloxni chin dildan sevadilar. Undan istaydilar. Unga yalinadilar, hamma narsani Undan kutadilar, bor va yo'q narsalar ham Undandir. Undan o'zgasini o'z ustlaridagi qudrat sohibi deb bilmaydilar. Bu ma'no na inkor va na iymon etmoqdir. Uning bir ismi yo'q. Biroq ma'no shakl va so'zga aylanishi bilan kufr yoki iymonga aylanadi. Xuddi shunday, yerdan endi chiqayotgan o'simliklarning dastlab muayyan shakllari bo'lmaydi, sekin-asta kattarib dunyoga yo'z ochganlari sayin latif va nozik ko'rinadilar. Yashaganlari sari esa kirlanadilar, qo'pollashadilar, ranglari o'zgarib xunuklashadilar. Bir – birlari bilan gaplashmagan mo'min va kofir zohiran bir xildir. Tushuncha ayblanmaydi. Insonning ichi hurriyat olamidir, tushunchalar latifdir, ularga hukm qilinmaydi. Ulug' Alloh tasavvurlar olamiga, xatto hyech bir olamga sig'maydi. Agar tasavvurlar olamiga sig'saydi,

¹⁰ Жалолиддин Румий . Маснавий 3 жилд. «Ал худо» нашриёти. –Т- 2003- Техрон, В 81-82

tasavvur qilgan odam Uni qamragan bo'lardi va U tasavvurlar yaratuvchisi deyilmasdi. Demak, U barcha olamlarning ustida ekanligi anglashilmokda.»¹¹ Bu o'rinda Jaloliddin insonning hayol va tasavvurlar olamini tushuntirar ekan, ruhiyat olamining cheksizligiga ishora qiladi. O'z navbatida bu ruhiyat olami o'z-o'zidan paydo bo'lgani yo'q, balki Alloh bu olamning egasi hisoblanadi va ruhiyatdagi barcha tushunchalar va tasavvurlarning buyuk musavviri ham Uning O'zidir. E'tibor bergan bo'lsangiz, Mavlono Rumiy; «Insonning ichi hurriyat olamidir.» dedilar. Bu esa insondagi erk va ixtiyor masalasidir, hissiyotlar va mayllar odamning erkinligidir. Insondagi bu erk va ixtiyor erkinligi, Allohning biz bandalariga berilgan buyuk ne'mat hisoblanadi, qolaversa bu foniyl dunyodagi imtihon masalasidir. Bizga berilgan ushbu erk va ixtiyor insoniylikning ijobiy yohud salbiy me'yorlarining chegarasi hisoblanadi. Albatta inson barcha haqiqatlarni o'z qalbidan izlashi kerak lekin u, o'z ruhiyatining o'tkinchi ehtirolariga asir bo'lib qolmasligi kerak.

Bu haqda Jaloliddin Rumiy «Masnaviy ma'naviy» asarida shunday fikr bildiradi;

*Xor – xoru xiyla xovu vasvasa,
Az xazon kas buvad, ne yak kassa.*

*Xor - xoru xiyladir, vosvosdir,
Bir emas, ming bir kishiga xosdir*¹².

(Tarjimasi: Odam bolasi his etishga qodir iztirob, hiyla va vosvoslar yolg'iz bir kimsadan emas, balki juda ko'p kishilardan hosil bo'ladi).

Inson nishon bo'luvchi turli ma'naviy va moddiy hissiyot yolg'iz bir malak yo shayton, yolg'iz bir fikr va kayfiyat yoxud maxsus moddadan zuhur

¹¹ Жалолиддин Румий. Маънавий ва маснавий. 6-жилд. Жамол Камол таржимаси. Т.: 2003, В 94-95

¹² Жалолиддин Румий. Маънавий ва маснавий. 4-жилд. Жамол Камол таржимаси. Т.: 2003, В 293.

etmay, balki bir necha maloik va shayotin, moddiyat va afkorning turli taassurotlaridan hosil bo‘ladi. Binobarin, maxsus bir kayfiyat ta'siri ostida, «Men falon fikrdan fayz oldim.» yoxud «Shayton vasvasa qilayapti.» deb gumon qilmoq xatodir. Zero, insonning moddiy va ma'naviy dushmanlari g‘oyat ko‘p. Shuning uchun qalbni turli taassurotlardan himoya qilish juda og‘irdir. Odam bolasi qaysi irq yo millatga mansub bo‘lmasin, u musulmon qavmida dunyoga keladi. Alloh izniga taslim holda olam sahnasiga tushgan Odam zamon va makon, turli moddiy va ma'naviy tassurotlar iskanjasida yo musulmon bo‘lib qolaveradi yohud nomusulmon bo‘ladi. Yaqindirki, har ikkisidan voz kechgan, bir maxluqqa aylanadi. Uning ushbu zayl kamol topmog‘i atrof muhitning bevosita ta'siri ostida kechadi. Masalan, moddiyunchilik mafkurasi hukumronlik qilgan jamiyatlarda inson shaxsiga katta e'tibor beriladi va banda «ijtimoiy munosabatlar yig‘indisi» «shaxs» yohud «indivud» kabi ajabtovur istilohlar ostiga olib kiriladi. Formulalar va kvadratlar ichiga kiritilgan odam, hissiz maxluqqa aylantiriladi. U soat millariga e'tibor beruvchi bir ashyoga aylanib qoladi. Masalan, soat 9 00 da ishga kelish kerak, deysiz. U sizga hyech qachon nega sakkiz demaydi. Inson Yaratuvchidan judo qilinadi, ilohiy nizomlar (hatto tabiiy hislatlargacha) unutishga mahkum etiladi. Bora-bora odam va Alloh subhonahu o‘rtasidagi robitaga putur yetadi. Odam zalolatga yo‘z tutadi. U juda ulkan zaminda qo‘rkuv va dahshat ostida yashay boshlaydi. Ko‘rinib turibdiki, inson his tuyg‘ularining dag‘allashib hissiz kishiga aylanib qolishida muhit ta'siri ham muhim o‘rin tutadi. Biz Jaloliddin Rumiyy tushuntirgan muhabbat, go‘zallik, tasavvurlar, hayol kabi inson ruhiyatidagi evrilishlarga sabab bo‘ladigan tushunchalarni izohlashga harakat qildik. Endi esa insoniylikning ikkinchi qutbi bo‘lmish salbiy nafsiy mayllar xususida Mavlono Rumiyyning fikrlariga e'tiboringizni qaratmoqchimiz.

Chunki ul zot aytganlaridek;

*Pas, ba ziddi, nur donisty tu nur,
Zid zidro memoyad bar sudur.*

*Nurni ziddi birla bilding – nur u,
Zidma-zidlik dilda dir – mastur u¹³*

Ya'ni; Nurning nur ekanligini uning muqobili zulmat vositasida bilding. Ko'ngildagi muqobil kayfiyat muqobil kayfiyatni paydo qiladi.

Bu xususida Rumiyning «Ichindagi ichindadir» asarida shunday deyiladi.

«Amirlar o'z podshohlarining dushmanlari va muxoliflari bo'lishini istaydi. Chunki, busiz ularning sultonga bo'lgan sadoqatlari yo'zaga chiqmasdi. Sulton ham muhtoj bo'lmasa amirlarini boshiga to'plamasdi. Ayni paytda bular muxolifatga rozi emaslar, yo'qsa ularga qarshi kurashishmasdi. Inson ham xuddi shundoqdir. Uning nafsida yomonlik omillarining bo'lishini Tangri istaydi. Chunki inson shukr va toat qilganni sevadi. Bu inson nafsida shunday omillarning mavjudligiga dalolat. Bir narsani istamak u bilan birga bo'lgan narsalarni ham hohlamakdir. Biroq u bunga rozi bo'lmaydi. Chunki u mujohada bilan bu narsalarni o'z nafsidan quva oladi.»¹⁴

Bizningcha, insonning jamiki mavjudotlardan ajralib turadigan jihati ham shunda bo'lsa kerak. Chunki inson hayoti juda murakkab, u hayoti davomida ezgulik va yovo'zlik qutblari orasida bo'ladi. Uning ruhiyatida Rumiyni aytganlaridek yaxshi xislatlar bilan birga yomon xislatlar ham mavjud. Albatta ezgullik yo'lini tanlagan inson hayoti mashaqqatlarga va ziddiyatlarga to'la bo'ladi. Lekin inson o'zligini unutmasligi va bu yo'ldan qaytmasligi kerak, aks

¹³ Жалолиддин Румий. Маънавий ва маснавий. 5-жилд. Жамол Камол таржимаси. Т.: 2003-йил, В276

¹⁴ Жалолиддин Румий. Фийҳи мо фийҳи. (Ичиндаги ичиндадур) Улуғбек Ҳамдам таржимаси. Т.: Янги аср авлоди, Т -2003, В 152.

holda o‘z tabiatida mavjud salbiy xislatlar asiriga aylanib halokatga yo‘z tutadi. Inson tabiatidagi eng qaltis va nozik xususiyatlardan biri bu nafsdir. To‘g‘ri, nafsning ham inson ustida turgan haqlari bordir. Bu esa o‘z navbatida Alloh insonga ato qilgan tiriklik ne‘matlaridan me‘yorida tasarruf aylashdir. Tasavvufning bosh mohiyati ham nafsga qarshi qaratilgan ma‘rifiy va amaliy tarbiyada o‘z aksini topadi. Jaloliddin Rumiyni nafsni; Insonning nafsi ho‘kizni da‘vo qilgan xunxorga o‘xshar, ho‘kizning boshini kesgan esa – aqldir deyдилar va bu hakda shunday hikoyat qiladilar:

*Nafsni o‘ldir sen, jahonni zinda qil,
Xo‘jakushdir ul, o‘zingga banda qil.
Muddaiy nafsingga aslo berma gal,
O‘z-o‘zini xo‘ja etmishdir o‘shal.
Ul hukkiz boshini kesmishdir aql.
Tan hukkizdir, bunga munkir bo‘l magil¹⁵*

Bundan ko‘rinadiki inson nafsiga qul bo‘lmasligi kerak va uni o‘ziga buysundirishi kerak. Buning uchun esa insonga, aql yordamga keladi. Chunki Mavlono Rumiyni aytganlaridek;

Barcha ish – harakat aqlning sharofati bilan yo‘zaga chiqadi. A‘zolar olatdir. Bu go‘yo zamonning xalifasi kabi. Ulug‘ inson misoli aql-i kull. Xalqning aqlari esa, uning a‘zolaridir va nima qilsa ham aqli-kullning soyasida qiladi. Agar ular biror xatoga yo‘l qo‘ysalar, bu aqli-kullning soyasidan chetga chiqish bilan izohlanadi. Masalan, aqldan ozayotgan odam aql soyasidan, himoyasidan mahrum qoladi. Aql farishta jinsidandir. Garchi malakning qo‘li va qanoti bo‘lsa ham, aslida bularning bari bir narsadir, aqldan iboratdir. Chunki uni eshitsang, aqldan o‘zga narsa qolmaydi. Axir mumdan tayyorlangan qushni

¹⁵ Жалоліддин Румий. Маснавий маънавий 1 жилд «Ал – Худо» халқаро нашриёти. Т -2003 Техрон. В 221-222

qizdirlsang, u yana mumga aylanadi – qoladi. Chunki mum mumdir va undan yasalgan qush yana o'shadir. Xuddi shunday, mo'z ham suvdir. Buni bilmoq uchun eritish kifoya. Mo'z suv holida ekan, qo'l bilan tutib bo'lmasdi, endi mo'z bo'ldi va uni ushlab, etakka olish mumkin. O'rtadagi farq shudir va bundan ortiq emasdir. Mo'z ham suvdir, ikkisi bir narsadir.

Insonning ahvoli ham shundoqdir. Eshak balki malakning nuri ila o'rtoq tutinish soyasida farishtaga aylanar, degan umidda malakning qanotini eshakning dumiga bog'lashibdi. Eshakning malaklashuvi faqat muayyan vasflar bo'lgandagina mumkindir. Insonning aqldan bir qanoti bor edi va ko'kka uchdi. Agar eshakda atigi yarimta qanot bo'lsaydi, u ham eshak bo'lib qolmasdi, balki insonga aylanardi. Alloh har narsani qila oladi. Masalan, bola kichikligida eshakdan ham battardir. Har turli iflosliklarga qo'lini botirib og'ziga olib boradi. Faqat onasigina bunga monelik qiladi. Eshakning hyech bo'lmasa bir navi toza xossasi bor. Chunonchi, peshob qilayotganda oyoqlariga sachramasligi uchun ularni kengroq ochadi. Mana shu eshakdan battarroq bolani Ulug' Tangri inson aylaydi. Shunday ekan, eshakni ham insonga aylantira olishiga nega hayron bo'lish kerak? Allohning ho'zurida g'arib bo'lgan hyech qanday narsa yo'qdir»¹⁶ Ko'rinib turibdiki, bu dunyoda inson o'z aqliga suyanishi lozim bo'ladi, aks holda ko'ngilning o'tkinchi mayl va ehtiroslariga bog'lanib insoniylikdan chetga chiqadi. Insonning har bir qilgan harakati savoldir va sevinch yoki qayg'usi javob bo'ladi. Go'zal javob uchun Allohga shukrona keltirish, yomon javob uchun esa Allohga tavba qilish lozim. Shukr va tavba savollarning xilidan bo'lishi hamda tavbadan keyin uning xilidan boshqa savol bermaslik zarur.

Bizga ma'lumki, ahloqiylik bu insoniy fazilatlarda namoyon bo'lsa, axloqsizlik esa illatlarda aks etadi. Shu ma'noda, Jaloliddin Rumiyning yuqoridagi fikrlari yana bir bor insoniy tushunchalarning surati emas balki siyratiga qaratilgandir. Umuman olib qaraganda o'tmishni olamizmi, yohud

¹⁶ Румий Ж . Маснавий 4 жилд. Техрон «Ал худо» нашриёти.-2003.В 86

bugungi kunimizni olamizmi, hayot turfa xil go'zallik va sir-sinoatlarini bizga ko'z-ko'z qilib keladi. Bundan maqsad ne? Bizningcha, biz bu sinoatlarning sifatlariga mahliyo bo'lmasdan balki uning asli bo'lmish mohiyatga e'tibor berishimiz lozim bo'ladi. Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, Jaloliddin Rumiy asarlarida ifodalangan ahloqiy-estetik tushunchalarning muhim tomonlari yana shundan iboratki, ular insoniylikning asosiy manbalaridan biri bo'lgan islom asosiga qurilishi kerak bo'lgan. Amaliy hayotda ham faqat shu manbalarga tayansagina jamiyat ma'naviy barqarorligi uchun eng katta zarar yetkazishi mumkin bo'lgan yomon ishlar tugatilishi mumkin. Huddi shu ahloqiy asosda qurilgan jamiyatgina yanada taraqqiy etishi mumkin. Buning uchun esa:

- Jaloliddin Rumiy asarlarida ifodalangan ahloqiy -estetik tushunchalar va tamoyillarning muhim tomonlarini O'zbekistonda olib borilayotgan ma'naviy yangilanishlar jarayoni hamda yoshlarni komillik ruhida tarbiyalashga jalb etish kerak bo'ladi.
- Jaloliddin Rumiy asarlarida ifodalangan yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik, ezgulik va yovo'zlik, muhabbat va nafrat va boshqalar mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy – ma'rifiy islohotlarning asosiy maqsadi bo'lgan inson ma'naviy kamolotini, manfaat va qadr qimmatini ta'minlaydigan ma'naviy muhitni shakllantirish vazifalarini amalga oshirishdagi mezon sifatida muayyan ahamiyat kasb etadi.
- Jaloliddin Rumiy o'zining aksariyat asarlarida inson va insonparvarlik g'oyalarini yanada chuqurlashtirib ilohiy zot bo'lgan insonga munosabat avvalo uning ma'naviy yetukligi hamda odamgarchiligiga qarab munosabatda bo'lish kerakligini uqtiradi. Shu ma'noda mazkur gumanistik g'oyalar O'zbekistonda demokratik jamiyatni barpo etish jarayonida muhim ma'naviy omil sifatida ulkan islohotlarni amalga oshirishga asos bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Jaloliddin Rumiyl o'z davridayoq xalqni tarbiyalash jarayonining qanchalik murakkab ekanligini to'la his qila olgan. Chunki ommaning ma'naviy darajasining turlichaligi bu jarayonda murakkabliklar tug'dirishi tabiiy hamda u bu jarayonning kechishini o'zining nafaqat ma'naviyat darajasida qabul qilgan balki, ba'zi odamlar oddiy ahloqiy me'yorlarga amal qilmasligidan achinib she'rlar bitgan. Shuning uchun ham Rumiyl xalqni tarbiyalash jarayonini islomiy ahloq asosida qurish kerakligini uqtirar edi. Shu ma'noda bunday ahloqiy qarashlar yoshlarni milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur, qobiliyat negizida, o'z kuchi va imkoniyatlarini ishga solib, millat taraqqiyoti yo'lida jipslashib bir maqsad sari harakat qilishga zamin bo'lib xizmat qiladi.

1.2. Komil inson konsepsiyasining Rumiyg xos talqini

Komil inson muammosi insoniyat tarixida hamisha dolzarb muammo bo'lib kelgan va bu mavzuga doir ko'p izlanishlar amalga oshirilgan. Biz XXI asrni intellektual, har tomonlama rivojlangan yoshlar asri deymiz. Bosh maqsadimiz komil inson tarbiyasi bo'lar ekan, ruhiy kamolot bilan bog'liq ma'naviy jihati, nafs tarbiyasi va qalb orqali mutloq xaqiqatni idrok etish masalasi ilmiy nuqtai nazardan jiddiy tadqiq etilishi lozim bo'lgan jumboq ekanligi ma'lum. Biror ta'limot, fan yoki hunarni yoshlar ongiga singdirishda avval mazkur, yo'nalishlar haqida atroflicha tushuncha berish zarur. Demak, mavlaviya tariqatidan butun olamni bilish uchun inson, avvalo o'zini o'zi anglashi muhimligi ta'kidlanadi. Bu tariqatda har bir shaxs o'zini anglay bilishi, boshqara olishi olamni anglash jarayonini muhim tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlaydi. Ma'lumki, tasavvufda ilg'or fikrli kishilarni oriy, sufiy, valiy deb qaralgan. Bularni bir-biridan farqlanishi ichki, botiniy imkoniyatlar bilan o'lchangan. Komillik haqida so'z

yuritsak, demak bu payg'ambarlik sifatlaridan biri sifatida tushunsak bo'ladi. Bizningcha mazkur komil inson g'oyasini yanada tushunarliroq bo'lishi uchun insonlarning sifatlari yanada soddalashtirib tushuntirish lozim. Mavlaviya-mutlaq haqiqatga olib borishni ko'zda tutgan diniy falsafiy xususiyatga ega ta'limot bo'lib, insonning ma'naviy kamolotiga, komil inson bo'lishiga oid diniy hamda falsafiy bilimlarni o'z ichiga oladi va insonni o'zini anglash vositasi bilan oliy hadgacha barkamol etadi. Mavlaviyada bilim manbai sog'lom fikr deya talqin etiladi. Shu talqinning o'zi ham bugungi kun ta'lim jaroyoni to'la mos kelishini ko'zatishimiz mumkin. Mavlaviyada sog'lom fikr bilan bir qatorda ilhom, kashf va sezgiga ham o'rin berilgan. Irfoniy bilimlarning eng muhim xususiyatlaridan biri ularning yangiligi, asl va o'ziga xosligidir.

Mavlaviya tariqatida bandaning ilohga muhabbati bilan birga ilohning bandalari muhabbati ham e'tirof etiladi. Nafsdan kechmoqning insonni komillikka eltuvchi yo'l deya tushuntirildi. Shu ma'noda komil inson fazilatlarini quydagicha ta'rif va tasnif etish mumkin deb hisoblaymiz: Komil inson-odamzod orzu qilgan jamiki ezgu hislatlarini ifodachisi, u mutloq ruh bilan insoniyat o'rtasida vosita bo'luvchi muqaddas hilqat, insonlarning eng mukammali, eng aqlli va donosi, ya'ni eng oliysi, iloh bilan odamlar o'rtasidagi vositachi, ilohiy amr, ayb asrorini odamlarga yetkazuvchi ulug' xomiy, martabada Aqli avvalga yaqinlikka intiluvchi, ruhi azaldan ma'lum, u tangri taolo yaratgan eng qudratli ruh, shu sifatlari bilan mutlaq ilohiy hislatlarni jamlagan qayxoniy mavjudlikdir, u oddiy inson suratda ko'rinsa ham lekin ma'nan koinotni qamrab olgan, hamisha bedor va hamma narsadan xabardor bir zot, kishilik jamiyati ichidan yetishib chiqadigan mo'tabar zotdir. Shu ma'noda, o'rta asr musulmon sharqida komil insonning o'ziga xos axloq kodeksi ishlab chiqilgan bo'lib, bu sifatlarga ega bo'lish har bir odamning orzu-armoni deb qaralgan. Bundan tashqari tasavvufshunos olim Najmiddin Komilov ta'biri bilan aytganda, "o'rta asrlardagi yaxshi axloq, komil inson haqidagi tushunchalar nisbiy xususiyatga ega ekanligi bilan bir tomondan, jami ruhiy-ma'naviy qudrat,

aqlu-zakovat, yaxshi sifatlarning jamuljami hisoblangan mavhum bir zot tushunchasi, ikkinchi tomondan, shu cho‘qqiga intilib, muayyan martabalarga erishgan kishi ham komil inson deb hisoblangan.”¹⁷ Jaloliddin Jaloliddin Rumi barcha tasavvuf ahli bilan uyg‘un holatda komil inson haqida fikr yuritgan va bu haqdagi ta’limotini o‘z asarlarida bayon etgan. Uning asarida asl inson, xos inson va haqiqiy inson tushunchalari bor. Bular ichida haqiqiy inson eng komil inson deya ta’riflangan.

Darhaqiqat, o‘tmish allomalarimizning asarlarini, ta’limotlarini o‘rganish va ularni zamonaviy metodlar asosida tadqiq va tahlil etish qanchalik sharaflilik hisoblansa, uning mas’uliyati ham shunchalik zalvorlidir. Biz ham mazkur nomzodlik Bitiruv malakaviy ishimizda yuqorida ta’kidlab o‘tganimiz, ajdod mutasavviflarimizdan biri Mavlono Jaloliddin Rumi ijodini, xususan komil insonni tarbiyalashga qaratilgan tasavvufiy konsepsiyasini ilmiy falsafiy tadqiq va tahlil qilish qanchalik mas’uliyatli bo‘lsa, u shunchalik darajada murakkab hamdir. Avvalombor, ushbu murakkabliklar nimada ko‘rinadi? Birinchidan, uning ta’limotiga munosabatda turli-tuman qarashlarning mavjudligi bo‘lsa, ikkinchidan uning so‘zlarini, qarashlaridagi ma’no va maqsadni turli olimlar tomonidan turlicha tushunilishidir. Mashhur Rumiyshunos olim Gulpinorli ta’biri bilan aytganda, Rumi asarlari ma’no jihatidan ham, maqsad jihatidan ham eng murakkab asarlar sirasiga kiradi. Ushbu murakkablik esa, o‘z navbatida yuqorida ta’kidlaganimizdek, chalkashliklarni yo‘zaga keltiradi. Jumladan, uning komil inson konsepsiyasiga oid qarashlari ham bundan mustasno emas. Shu ma’noda, Jaloliddin Rumiyning “komil inson” konsepsiyasini falsafiy tahlil va tadqiq etishda ham yuqoridagi ikki holatni nazardan soqit qilmaslik kerak bo‘ladi.

Avvalambor, Mavlono Rumi va uning merosini ilmiy tadqiq qilishda hamma vaqt uning serqirra shaxs ekanligini yodda tutish lozim. Negaki, bu zot birinchidan, insonni komillikka eltuvchi ahloqiy sifatlarni eng ko‘p tarannum

¹⁷ Комилов Н. Тасаввуф. Биринчи китоб.- Тошкент, “Ёзувчи” 1996. 153-бет.

etgan mutasavvuf sifatida mashhur bo'lsa, ikkinchidan, qanchadan-qancha muridu-shogirdlarni tarbiyalab kamolga yetgazgan tariqat shayxi va murshidi komili hamdir. Uchinchidan, o'z davrida shariat ilmining peshvosi sifatida faoliyat yuritgan zabardast ulamo hamdir. To'rtinchidan, uning "Masnaviy" asarini Buyuk Qur'onning she'riy tafsiri ekanligidan juda yaxshi xabardormiz. Shu ma'noni nazarda tutib Hazrati Abdurahmon Jomiy "Masnaviy"ni "Xast Qur'on dar zaboni pahlaviy" deb bejiz aytgan emas. Hazrati Mavlono Rumiyning insonni komillik darajasida ko'rishni orzu qilgan holda ishlab chiqqan tasavvufiy konsepsiyasi, boshqa bunday konsepsiyalardan muayyan darajada farq qiladi. Zotan, Jaloliddin Rumiyning o'zi ta'kidlaganidek:

*Har valivu har nabiro maslakest,
Haq meravand jumla on yakest.*

(Tarjima: Har bir valiy va nabiyning o'z maslagi bor. Lekin Haq oldiga borganda ularning hammasi bir bo'ladi.)

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, Jaloliddin Rumiyning "Komil inson" haqidagi qarashlari ancha yuksak darajada, majoziy usulda bayon etilishi va ahli sunnat e'tiqodiga muvofiq kelishi bilan boshqa ta'limotlardan farqli tomonlari ko'zga tashlanadi. Komil inson deganda, Rumiyy birinchi navbatda payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomni tushunadi va ularni o'z asarlarida targ'ib qiladi. Shuningdek, u komil inson bo'lish mezonini ham Muhammad alayhissalomga qanchalik ergashish nisbatiga qarab belgilaydi. Qolaversa, komillikka eltuvchi amaliy xatti-harakatlar, mezoniy, ahloqiy tushunchalar asosan Qur'on va hadislarda ko'rsatilgan amaliy ko'rsatmalarga rioya qilishlik bilan baholanadi. Tadqiqotchilarning fikricha, Jaloliddin Rumiyning mazkur tasnifi boshqa tasavvuf namoyondalarining komillikka erishish borasidagi qarashlariga monand kelsada, ularning tasnifidan ma'lum darajada farqlanadi.

Shuningdek, ular ushbu amallarga rioya qilishga doir majburiyatlarni Rumiylar o'ziga xos tarzda ishlab chiqqanini ko'zga tatish mumkinligini ta'kidlaydilar.

Bu o'ziga xos nozik farqlarni nimalarda ko'rish mumkin? Bizningcha, nozik farqlanuvchi bu jihatlar, asosan tariqatlarning xaqiqatga erishish borasidagi umummezonlarni qanday talqin qilish va unga amal qilishga oid taktik metodlarda ko'rish mumkin. Ta'kidlab o'tilgan taktik metodlar xaqiqatdan ham tariqatlarda turli xil sabablarga ko'ra farqlanadi. Ushbu sabablarni quyidagicha ko'rsatish mumkin. 1) Avvalambor, komilikka yetishish borasida tariqatlarning turli xil majburiyat va vazifalarni ishlab chiqqanligi; 2) mintaqaviy xususiyatlar; 3) umummezonlarga yondashuvlardagi turli xil talqinlar; 4) ma'lum bir tariqatlarga turli xil oqimlarning bevosita yoki bilvosita ta'siri. Yuqoridagi tasniflardan ko'rinib turibdiki, Mavlono Rumiylar boshlab bergan va asos solgan tariqat mavlaviya ham bunday xususiyatlardan mustasno emas. Shu o'rinda bir narsani ta'kidlab o'tish lozimki, bu narsa Rumiyni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tasavvufiy tariqatlar ikkita katta turga ajraladi: 1) sunniy tariqatlar; 2) nosunniy (falsafiy deb ham yuritiladigan) tariqatlarga bo'linadi.¹⁸ Sunniy tariqatlar asosan ahli sunnat val jamoat e'tiqodiga amal qilgan xolda, shariatning buyruq va qaytariqlarini ustuvor deb bilib, unga qat'iy amal qiladilar. Bu yo'nalishdagi tariqatlarda tashqi ta'sirlar va fikriy qarashlarga berilmasliklari bilan ajralib turadilar. Nosunniy tariqatlar esa, ahli sunna val jamoat e'tiqodiga xilof ravishda, shariatning amr va naxyilaridan o'z fikriy qarashlarni ustuvor deb bilib, "maqsad vositani oqlaydi" qabilida komilikka yetishish borasida turli xil falsafiy oqimlar qarashlaridan istifoda etadilar. Demak, tariqatlarga baho berishda masalaning ushbu nozik va muhim jihatlariga ham e'tibor berish, uni nazardan soqit qilmaslik, mazkur mavzu doirasidagi, xususan, Rumiylarshunoslikka oid tadqiqotlarni olib borishda juda katta yordam beradi deyish mumkin. Endi shu o'rinda, bir savol tug'iladi. Jaloliddin Rumiylarning

¹⁸ Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тасаввув ҳақида тасаввур.-Тошкент, 2002 йил, 71-бет.

tariqati qaysi turga mansub? Sirtan qaraganda, uning mavlaviya tariqati falsafiy tariqatlarga mansubligi bordek ko‘rinsada, aslida xaqiqiy ma‘nodagi sunniy tariqatlarning yetakchisidir. Mavlono Rumiyning qarashlaridagi majozilikning mazmun – mohiyatini tushunmaslik oqibatida, mavlaviya tariqatini ba‘zi bir tadqiqotchilar tomonidan an‘anaviy shariatga nomuvofiq keluvchi falsafiy(nosunniy) tariqat vaqili sifatida baholamoqdalar. Xattoki, u zotning qarashlari va so‘zlarini shariat kishanlarini bo‘zib tashlab, inson erkinligining yangi ufqlarini zabt etgan demokratik nazariya egasi sifatida ko‘rmoqdalar. Aslidachi? Aslida undoq emasdir. Balki, Mavlono Jaloliddin Rumi shariatni tushunish va unga amal qilishning yuksak namunasini o‘z asarlari va hayotiy faoliyati davomida ko‘rsatib bergan allomadir. Buni uning o‘zi haqidagi quyidagi bayti ham tasdiqlaydi:

Man bandai Qur'onman, magarkim borman,

Man xoki roxi, Muhammadi muxtorman.

Agar kim o‘ylasa, bundan o‘zgacha,

Bezorman o‘zidan, ham so‘zidan bezorman.

Yuqoridagi baytdan ko‘rinib turibdiki, Jaloliddin Rumi ba‘zi tadqiqotchilar aytganidek, shariatni inson uchun kishan deb bilgan shaxs emas. Balki, uni komil insonni tarbiyalashdagi muhim asos va vosita o‘laroq qamragan mutasavvuf sifatida gavdalanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda va shu kontekstdan olib o‘rganilganda Mavlono Rumiyning komil inson konsepsiyasining asl mohiyati namoyon bo‘ladi. Shuningdek, uning insonni komilikka yetkazuvchi konsepsiyasidagi ahloqiy fazilatlarini tahlil etganda, asosan Quron va hadislarda ko‘rsatib o‘tilgan me‘yoriy va mezoniy tushunchalarni “fundamental asos” deb makoniy va zamoniyl jihatdan ushbu “fundamental asos” ga tayanuvchi yondashuvlarni “qo‘shimcha yoki yordamchi

asos” deb qaramoq kerak. Jaloliddin Rumiyning komil inson konsepsiyasini metodologik tahlil etganda uning ikki muhim jihati ko‘zga tashlanadi. Birinchi jihati, Rumiyning insonni komilikka yetaklovchi mezon va talablari majoziy omillar bilan tushuntirib berilgan, ikkinchi jihati, uning asarlarida keltirilgan rivoyatlar, naqlarning boshqalarga tushuntirish asnosida anchayin sharhga muxtoj ekanligidir. Demak, mazkur ikki jihatga e’tibor qilish bizning fikrimizcha, qo‘yilayotgan muammoni yechimini topishda katta yordam beradi. Negaki, “Masnaviy” shorihlaridan Asqar Mahkam masnaviyni sharxsiz o‘qib bo‘lmaydi. Chunki, uning majozga oid tilsimoti, har qanday olimni ham juda chuqur o‘yga toldiradi deganida u haq edi.¹⁹ Mavlono Rumiyning asarlarini sharhsiz mutolaa qilib bo‘lmasligi singari uni falsafiy mushohadasiz tushunib bo‘lmaydi. Shunday ekan, Mavlononing insonni komil qilib tarbiyalashga oid qarashlari falsafiy-metodologik talqinni talab qiladi. Masalan, uning insonni komilikka yetaklovchi muhim boshlang‘ich nuqtani “ishq”da, ya’ni Allohga bo‘lgan muhabbatda ekanligini ko‘zatomiz. Shuning uchun ham Mavlono Rumi y ishqni “Usturlobi asrori Xudo” deb atagan.²⁰ Mazkur ishq tushunchasi, boshqa tasavvuf allomalarida ham komilikka yetaklovchi ilohiy mayoq ekanligi aytilgan bo‘lsada, lekin Mavlono Rumi yda bu tushuncha butkul boshqacha, ya’ni ham ibtido, ham intixo, ham vosita va ham maqsad tarzida tushuniladi. Uning fikricha, har qanday komilikka yetaklovchi amalning asosida ishq yotmas ekan, uning oqibati achchiq va alamli azob bo‘ladi.²¹

Qolaversa, Rumi ydagi ishq tushunchasi faqat mubolag‘adangina iborat emas, balki bu ishq insonni kamolga yetkazuvchi amal va xatti - harakatlarni xolis Alloh uchun qilmoqni o‘rgatadi. Uningcha, komilikka bel bog‘lagan inson (murid) avvalo, qilayotgan amalini biror bir manfaat yo‘zasidan emas, balki taslimiyat asosida qilmog‘i lozimdir. Taslimiyat esa, bilamizki, muridni pirga

¹⁹ Жалолиддин Румий. Маънавий ва маснавий. 2-жилд. Асқар Маҳкам таржимаси ва шарҳи. Тошкент, 2007, В 23

²⁰ Жалолиддин Румий. Маънавий ва маснавий. 4-жилд. Жамол Камол таржимаси. Тошкент, 2004, В 68

²¹ Усмон Нурий Тўпбош. Бир кўза сув (Маснавий ва маънавий асари таҳлили). Тошкент, 2007, В125

(murshidi komilga), paygʻambarga va Allohga mutlaq holda boʻysunmogʻini bildiradi. Ularning amrlari va qaytariqlarini soʻzsiz ado etadi. Ana shundagina u “murid” kamol topadi. Komil inson boʻlmoqlik esa, Rumiyning konsepsiyasiga koʻra, ana shu uch asosga amal qilishni talab etadi. Qolaversa, komillik masalasi Rumiya koʻra mavhum, ya'ni abstrakt tushuncha emas, balki insonni yuksaklikka darajama – daraja koʻtarilib borish qobiliyatidir. Bu qobiliyat esa tarbiya vositasidagina roʻyobga chiqadi. Uning uchun esa tarbiya toʻgʻri asosda yoʻlga qoʻyilmogʻi kerak. Bu asoslar albatta shariatga mutloq tayanmogʻi kerakdir. Bu haqida Rumiya oʻzining masnaviysida jafariylarga bergan insonlarning taqdiri va fe'llari yoʻzasidan raddiyasida atroflicha yoritib bergan. Jaloliddin Rumiyning komil inson haqidagi konseptual yondashuvi oʻzicha mavjud boʻlgan konsepsiyalarning yuksak darajada qayta ishlangan sintezi xisoblanishi bilan birga, oʻzidan keyin yaratilgan va yaratilayotgan ta'limotlarning fundamental ilmiy manbasi vazifasini bajarib kelmoqda. Uning komil inson konsepsiyasidan boshqa konseptual darajadagi qarashlari sharq va gʻarbda yaratilgan falsafiy tizimlarga ham oʻz ta'sirini oʻtkazmay qoʻymadi. Jumladan, nemis faylasufi Xegelning dialektikasini yoʻzaga kelishida turtki boʻlib xizmat qildiki, bu metod qayta ishlanib zamonamizning eng ilgʻor dunyoqarashi tarkibiy qismini tashqil etdi.²²

Shu ma'noda, Mavlono Rumiyning komil insonni tarbiyalashda qoʻllagan nazariy va amaliy metodi falsafiy jihatdan tadqiq etilishga muhtoj muammolardan hisoblanadi. Yana shuni ham ta'kidlab oʻtish kerakki, uning mazkur metodi, konsepsiyasi qanchalar insonning ulugʻligini koʻrsatishga xizmat qilsa, shuning barobarida insonni nafsning quliga aylanib tubanlashgan mavjudot sifatida, komil insonning qarama – qarshi qutbidagi vaqili ekanligini ochib tashlashga imkon yaratdi. Qolaversa, inson axloqini tubanlashuviga sabab boʻladigan ichki va tashqi omillarni ehtiyotkorlik bilan tarbiyalash Rumiyning

²² Улуғбек Ҳамдам. Жалолиддин Румийнинг Ичиндаги ичиндадур асарига сўзбоши -Т.: Янги аср авлоди, 2001. В 3-7

ta'biricha, insonning komil inson bo'lib yetishishidagi birinchi va muhim qadamidir. Uningcha, ushbu birinchi qadam yaxshi ahloqiy fazilatlarni singdirishgina emas, balki insondagi yomon deb atalgan illatlardan qutulmoqlik yo'li hamdir. Chunki, salbiy ahloqiy illatlar bor joyda yaxshi fazilatlar qaror topib kamol topishi amri maholdir. Rumiya esa insonni kamolga yetkazishda boshqa allomalardan farqli ravishda asosiy e'tiborini yuqorida ta'kidlagan salbiy illatlarni tarbiyalashga qaratadi. Shunisi qiziqki, Mavlono Rumiya yaxshilik va yomonlikning ildizini qadimgi Yunon faylasuflari kabi ikki yomonlik yoki ikki yaxshilik o'rtasidan qidirmaydi. Balki yaxshilik va yomonlikning mezonini ilohiy asosdan qidiradi. Uningcha, Alloh nimani yaxshi amal deb ko'rsatgan bo'lsa, o'sha yaxshi amal va Alloh nimani yomon amal deb, undan qaytargan bo'lsa, u albatta yomondir. Komillik esa ana shu ilohiy amrlarga bo'ysunishlik orqali namoyon bo'ladi. Qolaversa, Mavlono nazarida, komil inson bu moddiy dunyoning asiri bo'lmasligi va haqiqat mabdaidan g'ofil qolmasligi uchun hushyor bo'lmog'i lozim. Chunki uning o'tkinchi borlig'i bebahodir, qaerga bormasin, baribir Haqning qudratli panjasidandir. Darveshlikning eng yuksak cho'qqisiga yetish oson ish emas. Unga yetguncha o'zoq yo'llarni bosib, yo'l qiyinchiliklarini bo'yinga olib, olis manzillarga yetmoq lozim. Mavlono nazarida, bu yo'lda soliklarga yo'l ko'rsatuvchi pir lozim. Pirning hidoyatisiz manzilga yetib bo'lmaydi: «Andar o dar soyai naxli umid!» (Umid niholining soyasiga kir!)²³

. «Masnaviy»da so'zning asl mohiyati ham shundan iboratki, bu «nay» o'z nayistoniga qaytishni xohlaydi va qayta oladi, qaytishi ham shart. Unga qaytish o'z asliga qaytish demakdir. Ammo Mavlono bu fikr atrofida juda ko'p ahloqiy, irfonii va ijtimoiy bahsu munozaralar va umuman bu jahon borlig'iga aloqasi bo'lgan masalalarni o'rtaga tashlaydi. Shuningdek, Jaloliddin Rumiyning konsepsiyasidagi diqqatga sazovor tomoni shundaki, komil insonni tarbiyalashning asosi xulqiy go'zallik ekanligiga maxsus e'tibor berish

²³ Жалолиддин Румий. Маънавий ва маснавий. 5-жилд. Жамол Камол таржимаси.-Тошкент, 2006 В 102

masalasidir. Hadisi shariflarda har bir mo‘min musulmon bajarishi zarur bo‘lgan yaxshi xulqlar insonni haqiqiy kamolotga undovchi insoniy fazilatlardir, deb tushuntiriladi.²⁴ Shunga ko‘ra Jaloliddin Rumiylar insonni kamolotga yetaklovchi bir necha islomiy va tasavvufiy xislatni o‘zining barcha asarlarida qayd etib o‘tgan.

Jaloliddin Rumiylarning komil insonga oid qarashlarining o‘ziga xosligi shundan iboratki, u insonning jismoniy va ruhoniylar kamolotini uyg‘un holda qaraydi. Shuningdek, bizningcha, komil insonni tarbiyalash modelining ijobiylar tomonlarini hozirgi tarbiya tizimiga ham qo‘llash mumkin. Jaloliddin Rumiylar o‘z qarashlarida insonning o‘z-o‘zini idora etish, nafsini tanish va boshqara olishi, nafs tarbiyasi masalasi axloqlar fazilatli kishini tarbiyalash uchun muhim deb hisoblaydi. Shuningdek, Haq yo‘lida ezgu amallar ila ahloqiylar poklikka erishgan, shu o‘rini tazarru to‘lqinlari egallagan inson mohiyati Jaloliddin Rumiylar asarlarida o‘ziga xos irfoniylar tafakkur asosida isbotlab berilgan. Jaloliddin Rumiylar qayd etishicha, inson fikri, so‘zi va ishi bilan go‘zaldirlar. Xuddi mana shu fazilatlarning mushtarakligi inson qalbi va amallarining go‘zalligini belgilaydi. Zero, Jaloliddin Rumiylarning ta’kidlashicha, komil insonning siyrat va suratida ilohiylar va insoniylar mujassamdirlar, zotan ilohiylar insoniylar dan va insoniylar insoniylar dan ajratib tasavvur etib bo‘lmaydi. Jaloliddin Rumiylar asos solgan Mavlaviya tariqatidagi komil inson tushunchasi ilohiylar va insoniylar tajalliysining mukammal va oliylar darajasi, barcha inson zoti yagona ilohiylar javharning shu’lasi, tajalliysidir. Shuning uchun borlikdagi barcha mavjudotlar uni xurmat - extirom qilmoklari, unga xizmat qilmoklari zarur. Go‘zal ahloqli bo‘lish bu insonning yuksak fazilatlaridan biridir. Mavlaviya tariqatida ham go‘zal sifatlar ulug‘langan. Jaloliddin Rumiylar ham inson sabrli, qanoatli bo‘lsa, qo‘li ochiq saxovatli bo‘lsa kamol topishini anglagan va odamlarni shu yo‘lga boshlagan. O‘tmishdan bizga ma’lumki buyuklar komil inson bo‘lishga intilganlar. Komil inson har tomonlama yetuk insondirlar. U go‘zal xulqli, chiroyli

²⁴ Имом Ал Бухорий. Саҳиҳул Бухорий. 1-жилд-Тошкент, 2007, В 94

fazilat egasidir. Jaloliddin Rumiyning mavlaviya tariqati ham ushbu narsalardan xoli emas. U odam atrofdagi odamlarga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lishi lozimligini, o'zini kamtar tutishi kerakligini, qilgan ishlarini tama' qilmasligi o'zini burchini hamisha anglab yashamog'i kerak. Tokim odamlar uni ko'rganda xafa bo'lmasinlar, buning aksi xushmuomalaligidan xursand bo'lishlari kerak, shuningdek ota-ona, yoru do'stlari ham undan rozi bo'lishi kerak.

Jaloliddin Rumi inson tabiatida, o'zligida yaxshilik va yomonlik, saodat va shaqovat, nur va zulmat yashiringanligidan inson o'z-o'zini nazorat etib, nafsini jilovlab kamolotga intilishi lozim va bu ahloqiy fazilatlarning shakllanishiga olib keladi degan g'oyani ilgari surgan. Shu ma'noda, Jaloliddin Rumi ilgari surgan ahloqiy qadriyatlar hozirgi kunda ham qimmatlidir, chunki ular insonni faollikka, fidoyilikka, mehnatsevarlikka, iqtisodiy barkamollikka undaydi. Shu o'rinda qayd etish kerakki, Mavlono Jaloliddin Rumiyni bag'rikenglik g'oyasining targ'ibotchisi, deb atasak xato qilmaymiz. Butun umri davomida Jaloliddin Rumi odamlarni do'stlikka, tenglikka, birodarlikka, qalban yaqinlikka, mehr-shafqatli bo'lishga undagan. O'zi ham barchaga barobar bo'lgan. Jaloliddin Rumi inson umrining turli bosqichlari haqida ma'lumot berib, ularning har birini tasavvuf nuqtai nazaridan izohlaydi. Shuning bilan birga, insonga umr ham o'lchanib berilganligi, dunyoga ortiqcha muhabbat qo'ymaslik, balki boqiy hayot sanalmish oxirat uchun ko'proq xayrli ishlar qilib qolish zarurligi haqida ta'limot beradi. Jaloliddin Rumiyning ma'naviy merosi falsafada komil inson muammosini to'g'ri yechish va tana va ruhga me'yorda munosabatda bo'lish kabi bunyodkor g'oyani barkamol inson tarbiyasi uchun foydalanishga zarur manbalardan biridir.

Jaloliddin Rumiycha tasnifga e'tibor beradigan bo'lsak, inson tanasi oraziy, majoziy, foniyy vujud. Zero, komil insongina o'z rizqu – ro'zini fitratida, aslida yashiringan haqiqatdan emas, shu ilmi, ilohiy ishqidan bilib, unga bog'lanadi va natijada aslini unutadi. Komillikning asosiy belgisi insonni asl

vujud, boqiy va abadiy vujud bo'lgan Haq bilan yaqin bo'lishidir. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, fano bo'lish iborasi, aslida, mutasavvif kishilarning o'tkinchi hayot tashvishlaridan ozod bo'lishini, ma'naviy ahloqiy poklanishni, ilohiy amrni to'la – to'kis va bajonidil bajarilishini bildiradi.

Jaloliddin Rumiy o'zining “Ma'snaviy” asarida dunyoning bebaqoligi, undagi barcha narsalarning foniyligi, insonga umr ham o'lchab berilganligi, shuning uchun dunyoga ortiqcha muhabbat qo'ymaslik, balki boqiy hayot maskani sanalmish oxirat uchun ko'proq xayrli ishlar qilib qolish zarurligi haqida da'vat etadi. Fano bo'lish o'lishdir. Lekin Jaloliddin Rumiy vujudni fano, yo'qlik holatiga yetkazish deganda inson tanasini to'la inkor qilmaydi. Tana inson kamoloti uchun vosita, markab ekanligini ta'kidlaydi.²⁵

Tanaga hayvoniy, ilohiy ruh kiritilgan. yeyish, uxlash, shahvat va ammora nafs istaklari hayvoniy ruhning quvvatidir. Shuning uchun ularni me'yorga solib markab, yashash vositasi bo'lgan vujudan kamolot uchun foydalanish zarur, chunki mehnat qilish, birovga ezgulik qilish, hojatini chiqarish uchun ham tana zarur. Shuning uchun Jaloliddin Rumiy vujudni fano holatiga yetkazish deganda, oraziy, majoziy, foni vujudga bog'lanmaslik, uni ilohiy ne'mat deb bilib, undagi imkoniyatlarni Haq rizoligi yo'lida safarbar etish lozim deydi. Mavlona o'z navbatida qalb poklanib, vujud ilohiy sifatni egallasa, bunday vujud sharif bo'lib, bu olamga keladigan fayzlar va yaxshiliklarning sababchisi bo'ladi deb ta'kidlaydi. Shu bilan birga mavlono, mukkamal insonning dil ko'zgusida odillik, ilmi-hikmat kabi kamolot sifatlari zohir bo'lgandagina, u ko'zguning sofligini saqlagandagina va har qanday, g'uborlardan asragandagina kelgusi avlod uchun munosib inson bo'la oladi, degan g'oyani ilgari surgan.

Mavlononing fikricha, Xudoning vaslidan umidvor bo'lgan inson butun ma'naviy komillikni egallashi lozim. Riyozat chekib diniy, dunyoviy bilimlarni to'la egallab, haqqa yetganidan keyin, inson Allohning sifatlariga erishadi. Qalbidagi ishq o'ti botinidagi g'arazlarni, shaytoniy havaslarni kuydirib, insonni

²⁵ Жалолиддин Румий. Маънавий ва маснавий. 6-жилд. Жамол Камол таржимаси.-Тошкент, 2007, В 215

poklaydi. Natijada insonda Allohning aksi ko'rina boshlaydi va u endi "zar" ga aylanadi, inson yangidan yaraladi. U endi o'zini tuproqday kamtarin, xokisor, muloyim, kechiruvchan, Allohning jamiyki bandalariga nisbatan mehribon, shafqatli, nafsni jilovlagan, o'z mehnati bilan kun kechiruvchi odamga aylanadi. Zero, oshiq inson haqqa yetmoq uchun komillik sari intilishi, o'z mehnati bilan kun ko'rib riyozat chekishi orqali o'zi oshiq bo'lgan haqqa sodiqligini bildirishi shart. Jaloliddin Rumiy o'zining barcha tasavvufiy asarlarida insonning qalbi ezgulik daraxtining gurkirab rivoj topishiga yaraydigan zamin bo'lishi kerakligini uqtiradi. Va, u inson qalbini shunga o'xshatadi, ya'ni, komil mukammal pirning nafasi ham bahorda esgan mayin, iliq shabada singari o'z muridi qalbidagi ezgulik daraxtini g'aflat uyqusidan uyg'otib, unga hayot baxsh eta oladi. Jaloliddin Rumiy qarashlarida inson yuksak maqomni egallaydi. Uning ta'biricha, odam borliq mevasidir. Vujud silsilasining martabalari uning xizmatida. Olam yaratilishi, barcha ulug'lik va azamatligi bilan bir insondek hisoblanadi. Komil inson yolg'iz holda barcha olamlarning jamlovchisidir.

Jaloliddin Rumiyning «Fiyxi ma fiyxi» («Ichindagi ichindadir») asarida shunday fikr keltiriladi: "Bir kuni va'z o'qilayotgan paytda yig'inda ishtirok etgan barcha musulmonu kofirlar - hamma yig'lab turli axvolga tushgan. Bir kishi: «kofirlar nega yig'lashadi, ustiga ustak tilni bilishmaydi...» deb so'raganda, Mavlono: «So'zning o'zini tushunishga hojat yo'q. Ular mohiyatni, maqsadni anglashmoqda. Ular ham Allohning yagonaligini e'tirof etishadi...» - deb tushuntiradi. Jaloliddin Rumiy buni yanada soddaroq qilib tushuntirish uchun misol keltiradi: Ka'baga Shimolu-Sharq, Janub va G'arbdan, Iroqu Ajam, Hindu Yamandan odamlar yo'lga chiqadi. Ularning yo'llari har xil, ammo maqsadlari bir. Yo'lda ixtiloflar, tortishuvlar bo'ladi, ammo Ka'baga yetgach, bahslar to'xtaydi. Ular Ka'baga kelishib maqsadlari bir ekanini anglashadi»- deb ta'kidlab, quyidagi baytni keltiradi:

Har valivu har nabiro maslakest
*Lek, to Haq meravand jumla yakest*²⁶.

(Mazmuni: Har bir valiy yoki nabiyning o'z maslagi bor, ammo Haq oldiga borganda hammasi bir bo'ladi.) Zero, muhabbatlilik, mehribonlik, rahmlilik, ozor bermaslik, yordam qo'lini cho'zish, og'ir damda hamdam bo'lish kabilarni targ'ib etib, Rumiylar qalbni poklashga, bag'rikeng bo'lishga chorlaydi. Hozirgi davrda, bunyodkor g'oya hisoblanayotgan bag'rikenglik masalasi butun jamiyat a'zolarining ezgulik yo'lidagi hamkorligini nazarda tutadi hamda tinchlik va barqarorlikni mustaxkamlashning muhim sharti hisoblanadi²⁷. Demak, bag'rikenglik jamiyatda yashayotgan kishilarni muvofiqlik turmush tarzi, kamolotga, hamjihatlikka intilish, o'zaro bir-birlarini hurmat, o'zaro yordam, mehr-oqibat va bir-birlariga bo'lgan qadr-qimmat ifodasidir.

Tarixdan ma'lumki, mamlakatimizda islom, nasroniylik, yahudiylik kabi dinlar yonma-yon yashab kelgan. Asrlar mobaynida yirik shaharlarda masjid, cherkov va sinagogalarning mavjud bo'lishi, turli millat va dinga mansub qavmlarning o'z diniy amallarini erkin ado etib kelayotgani buning tasdig'idir. Tariximizning eng murakkab, og'ir davrlarida ham ular o'rtasida diniy asosda mojarolar bo'lmagani xalqimizning dinlararo bag'rikenglik borasida ulkan tajriba to'plaganidan dalolat beradi.²⁸ Shu ma'noda Jaloliddin Rumiylar bag'rikenglik g'oyalarini amalga oshirish irq, elat, millat, aholi qatlami, dinlar, jinslar, himoyasizlarga nisbatan har qanday zo'ravonlik siyosatini qoralaydi va Alloh sifatlarini olib baravar ezgu munosabatda bo'lishga chaqiradi.

Komil inson g'oyasi nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari yetaklagan, ularni ma'naviyat va ma'rifat sohasida tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodlarni voyaga yetkazish haqida qayg'urmagan xalqning, millatning kelajagi yo'q. Bunday xalq va millat tanazzulga mahkum. Mavlono Jaloliddin Rumiylar

²⁶ Жалолиддин Румий.. Ичиндаги ичиндадур. Улуғбек Ҳамдам таржимаси -Т.: Янги аср авлоди, 2001.В19

²⁷ Махмудова С. Бағрикенглик сарвари. // Иброҳим Мўминов фалсафий ўқишлари.- Бухоро. 2004. В 94

²⁸ Сулаймонова Фозила. Шарқ ва ғарб.-Тошкент. 2001, В 354

insonning komil inson bo‘lib yetishishi, uning tarbiyasi, dunyoqarashi, sog‘ligi, hurmat e’tibor qozonishi, ilmiy, baxtli bo‘lishi, umuman olganda, inson nomiga munosib bo‘lib yetishishi uchun zarur bo‘lgan xislatlarni o‘zining aksariyat tasavvufiy qarashlarida bayon etgan. Jaloliddin Rumiyning “komil inson”ga oid qarashlarini ma’lum tizim deb olsak, uning tarkibi quyidagilardan iborat ekanligini ko‘rish mumkin:

- Komil inson – asliga qarab intiluvchi va bu yo‘lda yuksalgan inson.
- Komil inson – o‘zligini unutib, ilohiy ishqqa cho‘mgan inson.
- Komil inson –Olloh bilan ruhi uyg‘un inson.
- Komil inson – o‘z nafsini jilovlagan va nazarot qilaoladigan inson.
- Komil inson – ilohiy va insoniy haqiqatni anglagan inson.

Komil inson haqidagi Jaloliddin Rumiyning tizimi tarkibidagi elementlar bir-biri bilan bog‘liq, biri ikkinchisini taqozo etadi. U komil insonga har tomondan baho beradi. Shuning bilan birga, inson komilikka intilishi uchun Rumiyni ko‘rsatib o‘tgan metodlar asosida ish tutish ham amaliy, ham ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mavlono Rumiyning ushbu ko‘rsatmalari, falsafiy nuqtai - nazardan tahlil etilganda quyidagicha xulosani beradi: 1) Komilikka yetish uchun insonga salbiy illatlarni bartaraf etish, unga yaxshi fazilatlarni osonlik bilan o‘zlashtirishga imkon yaratadi; 2) ijtimoiy munosabatlarda shariat amallariga rioya qilishlik aksariyat musulmon bo‘lgan mintaqalarda fitnalarni oldini olishga xizmat qiladi. Qolaversa, bu o‘z navbatida g‘ayrimusulmon mintaqalarda islomiy axloqqa bo‘lgan ijobiy taassurotlarni yo‘zaga keltiradi. Ayniqsa, jahon mintaqasida tomir otib ulgurgan, islomafobiyani oldini olishda katta foyda keltiradi, deyish mumkin. 3) Rumiyning mazkur qarashlari muqaddas islom dinini va shu asosida vujudga kelgan tasavvufiy ahloqni naqadar mukammal va go‘zal ishlab chiqilganini ko‘rsatadi. 4) Uning komil insonni tarbiyalashga qaratilgan ilmiy metodi bugungi yosh avlodni tarbiyalashda dasturul amal vazifasini bajaradi. Negaki, ushbu dastur sharq

ahloqshunosligining go‘zal namunasi sifatida hayot sinovlaridan o‘tganligi bilan zamonaviy g‘arb ahloqiy konsepsiyalaridan ancha ustun turadi deyish mumkin.

Umuman olganda, Mavlono Rumiyning komil inson konsepsiyasi qanchalik ko‘p o‘rganilganligiga qaramay, hali yetarli darajada falsafiy - metodologik tadqiq obektiga aylanganicha yo‘q. Zotan, bizning zamonamizda olib borilayotgan ilmiy - tadqiqot ishlari asosan, adabiyotshunoslik, ahloqshunoslik va nafosatshunoslik mavqyeidandir. To‘g‘ri, bu tadqiqotlar ham qaysidir ma'noda uning falsafiy mohiyatni ochib berishga xizmat qilsada, ammo uning metodologik manzarasini ochib bera olmaydi. Masalan, Asqar Mahkam “Masnaviy”dagi komil insonni tarbiyalashga xizmat qiluvchi ahloqiy kategoriyalarni sharhlashda o‘zigacha mavjud bo‘lgan sharhlardan foydalansada, ushbu sharhda falsafiy – metodologik jihatlariga kam e'tibor qaratadi.²⁹ Tojikistonlik olim M. Maxmadchonova esa, asosan tasavvufiy irfoniy jihatlarni tadqiqotining obekti sifatida olib o‘rgangan.

Umuman olganda, bu kabi tadqiqotlar Rumiyning konseptual qarashlarini ochishda masalani ikkinchi tomonidir deb baholash mumkin. Jaloliddin Rumiyning komil inson konsepsiyasiga faqatgina bir tomonlama qarash ilmiy jihatdan ham mutlaqo mumkin emas. Sababi, Rumiyning bizga qoldirgan bebaho merosi bir necha yo‘z yillar davomida, sayqallanib kelgan sharq falsafasi va xikmati, islomiy ahloqiy qoidalarini omuxta eta olgan, tasavvuf va falsafani qo‘shib, inson ruhiyati dialektikasini ochishga xizmat qilgan ilmiy – falsafiy metodologiyadir. Uning metodologiyasida biron bir jihatni mutaasiblarcha mutloqlashtirilganligini ko‘rish mumkin emas. Har holda Mavlono Rumiyni insonni komilikka eltuvchi ahloqiy fazilatlar bilan birga, insonni tubanlikka yetaklovchi salbiy illatlarni tahlil etishdagi o‘zi tomonidan ishlab chiqilgan metodi qanchalik mukammal bo‘lmasin, hych qachon mutloqlikka da'vo qilmaydi. Bizningcha, bunga Mavlono Rumiyning shaxsiy ahloqiy xatti -

²⁹ Asqar Maḥkam. Mavlono uchun meni kechiring... [Махжурий: бир кўнгил суҳбати] // Гулистон. -1998.- №5.-Б.62

harakatlari bilan birga inson ruhiyati ufqlarining naqadar rangbarang cheksizligi sabab bo'lgan bo'lsa, ajab emas. Jaloliddin Rumiyning komil inson konsepsiyasini, milliy istiqlol g'oyamizning asosini tashqil etgan komil insonni tarbiyalashdagi beqiyos ahamiyatini e'tirof etmaslik mumkin emas. Shu ma'noda, uning metodi bugungi tarbiyaviy metodologiyadan anchayin farq qilsada, bu metodning kamchiligi yoki nuqsoni emas, balki bu xozirgi zamonaviy metodologiyaning anchayin rivojlangan, shakllangan ko'rinishi deb baholanishi mumkin.

Mavlono Jaloliddin Rumiyning tadqiqot va tahlil etilayotgan konsepsiyasiga qaytadigan bo'lsak, uning, ya'ni masalaning yana boshqa muhim jihatlari ko'zga tashlanadi. Bunda asosan, biz uchun muhim bo'lgan zamonaviy tarbiya muammolari bilan uning "komil inson" ni tarbiyalashga doir konseptual yondashuvlari, biz shiddat bilan taraqqiy etayotgan, ma'naviy evrilishlar davrida, shubhasiz, axborot buxronlari tufayli tobora murakkablashib borayotgan ruhiy-ma'naviy dunyoyimizni qaytadan o'rganib, uni kamol toptirishda qay darajada mushtarak jihatlar mavjudligini o'rganish masalasidir. Bu muammo haqiqatdan ham biz uchun kechiktirib bo'lmas darajada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, Rumiyning konsepsiyasi orqali bugun madaniyatimizga kirib kelayotgan qo'shtirnoq ichidagi zamonaviy axloq mezonlarini qaytadan taftish qilish nafaqat davr talabi, balki an'anaviy ahloqiy muhitni, ya'ni etosferani saqlab qolishning yagona manbaidir. Shu ma'noda, muhtaram Yurtboshimiz komil insonni tarbiyalash, davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qildi. Bu albatta o'tmish merosimizni qaytadan tadqiq etishga keng yo'l ochib berdi. Mavlono Jaloliddin Rumiyning komil insonni tarbiyalashga oid konsepsiyasining Yana bir muhim va ahamiyatli tomoni shundaki, ushbu konsepsiya inson ruhiy va ma'naviy olamining so'ngsiz ufqlarini teran anglashda aql bovar qilmas darajada yutuqlarni qo'lga kiritdi. Qolaversa, Rumiyning mazkur konsepsiyasi orqali jamiyatga, xususan kelajak avlodlarga murojaat qilib, biz yashayotgan dunyoni kamolga yetmoqlikning manbai ekanligini ta'kidladi. Chunki, insonni ahloqiy

fazilatlarini takomili jamiyatdagi turli munosabatlarga kirishish orqaligina namoyon bo'lishini ilmiy asosda ko'rsatib beradi. Bu haqida shamsul millatimiz hazrat Navoiy ham Mavlono Rumiya muqoyasa qilgan holda, shunday degan edi: “ Kamol et, kasbkim olam uyidin, senga g'amnok chiqmak. Dunyodin notamom o'tmak biaynix, erur hammomdin nopok chiqmak”.³⁰ Darhaqiqat, hazrat Navoiyni ham, Mavlono Rumiyni ham fikricha, inson dunyo uyiga kelganidan keyin kamol topmasdan o'tsa, xuddi hammomga kirib yuvinmasdan chiqqan kishi kabidir. Yuqorida ta'kidlanganidek, Malono Rumiyning komil insoni, mavjud dunyo va undagi jamiyatdagina kamolotga erishib, sayqal topadi. Agar mazkur fikrlarga e'tibor bersak, uning konsepsiyasi abstraksiya emas, balki har qanday inson amalga oshira oladigan real haqiqat ekanligini ko'zatomiz. Lekin shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, ba'zi bir g'arb tadqiqotchilari tomonidan xususan, Nikolson va Trimengem ushbu konsepsiyadagi talab va majburiyatlarni insonni amaliy hayotga tatbiq eta olishini shubxa ostiga olib, uni real hayotda uchramaydigan mavxum va mubolag'ali hodisa sifatida baholaydilar. Aslida bunday holat g'arb jamiyati uchun begona ekanligi biz uchun ham tarixdan ma'lum. Shuning uchun ham mazkur olimlarga komil insonga qo'yilgan talablar mubolag'a bo'lib ko'ringan. Sharq xalqlari uchun esa, bu majburiyatlar real bo'libgina qolmay, balki odatiy holdir. Buni islom diniga mansub bo'lmagan Sharqning boshqa xalq va mintaqalarining diniy ahloqiy konsepsiyalarida ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, hindlarning diniy - falsafiy yo'riqnomalarida ham islomdanda murakkab talab va majburiyatlarni komillikning muhim sharti sifatida, targ'ib va tashviq etadilar.³¹ Ko'rinib turibdiki, sharqda bunday konsepsiyalar Jaloliddin Rumiygacha ham mavjud bo'lganligi mintaq xalqlari uchun bunday talab va majburiyatlarni begona emasligini ko'rsatadi. Jaloliddin Rumiyning komil inson konsepsiyasi nafaqat real hayotiyiligi bilan, balki uni amaliy hayotda ham osonlikcha amalga oshirish

³⁰ Алишер Навоий. Танланган асарлар, Тошкент, 2001, 14-жилд, 56-6.
³¹Абу Райхон Беруний. Ҳиндистон.-Тошкент, 1967, 89-6.

mumkinligi jihatidan ham ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan umumbashariy qadriyatlarni o'zida mujassam etadi. Uning metodidagi tarbiyaviy vositalar inson nafsini har tomonlama kamol topishiga qulay imkoniyat yaratadi.

Bu jihatdan olib qaraganda, mazkur metod tashqi omillargagina tayanadigan zamonaviy pedagogika tamoyillari bilan, Mavlono Rumiyni konsepsiyasini omuxta holda o'rganish, uni davr talablariga mos ravishda ta'lim tarbiya jarayoniga joriy etish kechiktirib bo'lmaz dolzarb vazifadir. Bu o'z navbatida Sharq va G'arb madaniyatlarining o'zaro sintezi davom etayotgan bir vaqtda sharqning o'lmaz ahloqiy qadriyatlarini hеч bo'lmaganda yangicha ko'rinishda bo'lsa ham saqlab qolish, uni hayotga tadbiiq etishni, hayotning o'zi muhim muammo sifatida qo'ymoqda.

Insonga ta'lim berish tarbiya jarayoni bilan bog'liq hodisa ekanligi hammaga birday ravshandir. Lekin, ta'lim bilan tarbiya o'rtasida yo'zaga kelgan bugungi o'zulishlarni to'ldirilmasa, yoshlarga zamonaviy ta'lim berish bilan birga uning nafsini tarbiyalashga e'tibor qaratilmasa, har qancha taraqqiiy etmaylik, ma'naviiy jihatdan qashshoq bo'lib qolaveramiz. Mavlono Rumiyni komil inson konsepsiyasini falsafiiy metodologik tahlil etishdan maqsad ham, yuqorida ta'kidlaganimizdek, bugungi insonni barkamol holda ko'rish, uni komil inson qilib tarbiyalashda uning metodini zamonaviy metodlar bilan muqoyasa holda o'rganishdir.

II Bob JALOLIDDIN RUMIY INSON MA'NAVIY KAMOLATI XUSUSIDAGI QARASHLARINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

2.1. Komil insonni tarbiyalashga doir zamonaviy konsepsiyalar va Rumiya ta'limotidagi mushtarak jihatlar

Vatanimiz istiqlolga erishganidan sўng ajdodlarimiz merosini davr talablaridan kelib chiqqan holda qayta, haqqoniy baholash jarayoni boshlanib ketdi. Shuning uchun ham Prezidentimiz I. A. Karimov mamlakatimizning rivojlanish strategiyasidagi «ikkinchi ustuvor yoʻnalish - jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirishdan iborat»³² ekanligini belgilab bergan edi. Ayni ana shu botiniy kuch ajdodlarimiz xususan, tasavvuf vaqillari tomonidan yuksak darajaga yetkazilganligi tarixdan ma'lum. Oʻz navbatida tasavvuf xalqimiz ma'naviy madaniyatini tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu ma'noda, ma'naviyatni yuksaltirish bevosita milliy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish bilan bogʻliq holda sodir boʻladi, albatta. Buning uchun esa allomalarimiz qoldirib ketgan ilmiy-madaniy merosimizdan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Moturudiy, Mahmud Zamaxshariy, Jaloliddin Rumiya va boshqa shu kabi buyuk allomalar oʻzlarining ilmiy va madaniy meroslari bilan jahon madaniyatiga ulkan hissa qoʻshganlar. Mazkur allomalarning borliq, mavjudlik, insonparvarlik, adolat, imon, insof, diyonat, oʻzaro mehr-oqibat, vijdon sohasidagi diniy-falsafiy qarashlari, ayniqsa, yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashga qaratilgan oʻgʻitlari inson, jamiyat, davlat oʻrtasidagi munosabatlarning ma'naviy-ahloqiy asoslari rivojida muhim ahamiyat kasb etgan.

Jumladan, ma'naviy-ahloqiy taraqqiyotning gʻoyaviy asoslarini oʻrganishda Oʻrta Osiyoda vujudga kelgan tasavvuf ta'limotining komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyatini tadqiq etish muhim oʻrin tutadi. Shuning uchun ham

³² Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз.-Т.: Ўзбекистон, 1999.- В 381

bugungi kunda tasavvuf falsafasining buyuk namoyandalari Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Najmiddin Kubro, Xoja Axror, Bahouddin Naqshband, Jaloliddin Rumi va boshqa mutasavviflarning komil inson to'g'risidagi qarashlari muhim manbalar qatoriga kiradi. Mazkur allomalarning qarashlarida ifodalanishicha, insonning komillik darajasiga yeta olishi bu shunchaki orzu emas, balki uning ezgulikka xizmat qilish, ilmlarni o'zlashtirish va rivojlantirish, ezgu ishlar qilish jarayonida erishilishi mumkin bo'lgan aniq hodisa yoki oliy darajadagi ma'naviy yuksaklik hisoblanadi. Shunday ekan, o'zluksiz ta'lim berish va maqsadli tarbiyalash orqali komillik sifatlariga ega bo'lgan barkamol insonlarni voyaga yetkazish dolzarb ahamiyatga ega. Komil insonni tarbiyalash masalasi bu oliy maqsad bo'lib, u mustaqillik yo'lida ildam borayotgan davlatimizning asosiy maqsadini tashqil etadi. Shu ma'noda mustaqil O'zbekistonda qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» yangi asrning barkamol avlodini yetishtirishdek murakkab va olijanob vazifalarni hal etishga qaratilmoqda. Mazkur dastur rejalari mamlakatimizda nafaqat ta'lim tarbiya tizimini isloh qilish, balki yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, fuqarolik jamiyatini ma'naviy barkamol, ezgu g'oyalar hayotiy e'tiqodi bo'lgan insonlargina bunyod eta oladi. Shuning uchun ham hozirda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksak darajaga ko'tarish orqali barkamol insonlarni voyaga yetkazishga muhim e'tibor berilmoqda. «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» ma'ro'zasida Prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi so'zlarini o'qiymiz: «Ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta'lim va ma'rifatni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi». Bunda ayni paytda jamiyat va shaxs munosabatlarining dolzarb muammolarini aniqlash, shaxs kamoloti bilan komil inson tushunchalarini zamonaviy talqin etish maqsadga muvofiqdir. Undan keyingi vazifa komil insonni tarbiyalash xususiyatlarining o'zgarib borayotgan

yoʻnalishlarini chuqur ilmiy tahlil qilish masalasidir. Bu oʻrinda ana shu xususiyatlarga taʼsir etuvchi obʼektiv va suʼektiv omillar, xususan ijtimoiy, maʼnaviy-ahloqiy taʼsirlarga alohida eʼtibor qaratilishi zarur deb hisoblaymiz.

Umuman olganda, komillik yoʻli mashaqqat va haqiqat yoʻli, mexr - muhabbat, sabru – qanoat, ilmu-maʼrifat yoʻlidir. Ana shu maʼnoda Mavlono Jaloliddin Rumi tanlagan yoʻl komillikka eltuvchi ulugʻ va muqaddasdir. Eng muhimi, bu yoʻldan chiqmaslik va qatʼiylik bilan oldinga intilishdir. Yana muhimrogʻi bu yoʻlning manbai, tarixi bor, bu yoʻl biz uchun notanish emas.

Inson dunyoning obodligi, jamiyatning barqarorligi, tinchlik va totuvlik, oʻz-oʻzi va har biri, nihoyat nasli uchun, kelajak avlod uchun, qolaversa butun insoniyat taqdiri uchun ham maʼsuldir. Ana shu maʼsullik hissi komillikning asosiy belgilaridan biri boʻlib, har bir insonning kundalik xatti-harakatida namoyon boʻlishi shart. Bu istiqlolimizni asrash, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish uchun zarur avlodni tarbiyalaydi. Boshqa allomalar qatori Mavlono Rumiyning komil inson gʻoyasi bir necha asrlar mobaynida xalqimizning ezgu orzusi va tasavvuf falsafasining markaziy masalalaridan biri boʻlib kelgan. Chunki, u islom gʻoyalaridan oziqlanib, yanada kengroq maʼno - mazmun kasb etgan. Komil inson haqidagi yuksak gʻoyalar Mavlono Rumiyning barcha asarlarida teran ifoda etilgan.

Komil inson faoliyatida bilim va yetuk axloq oʻzviy ravishda bir-biri bilan bogʻliqdir. Chunki, bilim narsalarning mohiyatini ichki sababiyatlarini bilish imkonini bersa, ahloq esa odamni yaxshi fazilatga daʼvat etadi. Chunki kamolotga erishish odamdan oʻzining soʻngi maqsadi, baxtiga yetish, baxtni qoʻlga kiritish uchun foydali narsalarni qoʻlga kiritishni talab qiladi.

Komil inson gʻoyasi nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari yetaklagan, ularni maʼnaviyat va maʼrifat bobida tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan maʼnaviy-ahloqiy omildir. Shu sababli Rumi asarlarida ifodalangan ustivor gʻoyalaridan boʻlgan komil inson gʻoyasi,

mustaqil O'zbekiston yoshlarining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy hayoti va dunyoqarash me'zonlarini o'zgartirishda alohida ahamiyatga egadir.

Bizningcha, hozirgi kunga kelib komil inson tushunchasi yanada dolrazb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki butun insoniyatning XXI asrgacha bo'lgan orzulari bir tomonu, uchinchi ming yillik boshida turib belgilanayotgan rejalari bir tomon bo'la oladi. Elektronika, kompyuter, uyali texnika, atom, ultratovush, lazer va infraqizil nurlar, biogenetika, kosmonavtika va shu kabi umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan soha va yo'nalishlar soni yanada ko'payishi shubhasiz. Shunday qilib hozirda e'tibor berilayotgan komil insonni tarbiyalashdagi zamonaviy konsepsiyalar birinchidan, komillik qiyofasini zamonga nisbatan, davr va muhit ichida, ijtimoiy hayot bilan bog'liq holda tasavvur qilishga asoslanadi. Ikkinchidan, komil inson qiyofasini nisbatan, hayotiy tajribalar ko'lamini va odamiylik sifatlarini umumlashgan yoki xususiylashgan shakllarida ko'rishimiz mumkin va nihoyat, uchinchidan, inson komilligining ahamiyatiga nisbatan, komillik darajasiga yaqinlasha olgan shaxsning o'z davriga, zamonasiga, millati, halqi, Vatani va butun insoniyatga ta'siri, keltirgan nafi yoki ma'naviy ozuqasi salmog'i bilan belgilanishi shubhasiz.

Hozirgi davrda milliy ma'naviyatimizning asosiy maqsadlaridan biri komil insonni tarbiyalashdan iborat bo'lib qolmoqda. Bu haqida Prezidentimiz I. A. Karimov ham «Har qaysi davlat, har qaysi millat o'z farzandlari qiyofasida, unib-o'sib kelayotgan yosh avlod timsolida shu xalqqa xos fazilatlarini namoyon etadigan, uning ezgu, orzu-niyatlarini amalga oshirishda mardlik va fidoiylilik ko'rsatishga qodir o'z tayanchi va suyanchini ko'rishi tabiiydir» degan edilar. Binobarin, yosh avlodni komillik ruhi, zamon talablari va jahon ilg'or tajribasi asosida tarbiyalash jamiyatimizning asosiy omiliga aylangan. Shuning uchun ham biz, yosh avlodga tariximiz, ma'naviy merosimiz, bugungi maqsadlarimiz, ertangi buyuk kelajagimiz haqida asosli tushunchalar, bilimlar berishimiz, o'zligimizni anglashga imkon yaratishimiz kerak bo'ladi. Shu ma'noda tasavvuf tarixini xususan mavlaviya tariqatini keng miqyosda o'rganish va aholini

mumkin qadar to'laroq u bilan tanishtirish, umuminsoniy, ijtimoiy, iqtisodiy - siyosiy va milliy qadriyatlarimizni yanada chuqurroq uyg'unlashtirishga yordam beradi.

Mavlono Rumiylar komil inson deganda mehr-muruvvatli, adolatli, to'g'ri so'z, vijdonli, or-nomusli, irodali, tadbirkor, matonatli, o'z ishiga fidoiy, ma'naviyati yuksak kishilarni tushungan. Va, bizningcha, komil insonga mavjudot xulosasi va qaymog'i deb qaragan.

Komil insonni shakllantirish Vatanga sadoqat, yurt tinchligini saqlash tuyg'usi bilan bog'liq ekan, uning quyidagi jihatlariga e'tiborni qaratishimiz lozim. Bular Vatanga fidoiy bo'lish, na'munali ahloq-odob, xushmuomala bo'lish, mehnatga to'g'ri va ongli munosabat, ahillik, insoniylik, jonkuyarlik, kamtarlik, do'stlik va o'zaro yordam, intizomli bo'lish, faollik, maqsad sari intilish, rostgo'ylik, ishbilarmonlik va tadbirkorlik, oilani mustahkam saqlash, or-nomusli bo'lish, sog'lom va jismonan yetuklikka intilish, mas'uliyatni his qilish, vijdonlilik va x.k. Shuningdek, komillikka intilayotgan shaxs o'z-o'zini nazorat qilishi, o'z-o'zini tarbiyalashi yuksak mas'uliyatni his qilishi, g'oya uchun kurashishi, mustahkam e'tiqodga ega bo'lishi, ijtimoiy faol bo'lishi lozim. U mustahkam iymon – e'tiqod, g'oya va insoniylik fazilatlariga ega bo'lgan, millat taqdiri va millat tuyg'usi bilan yashaydigan, o'zida yangi davr xususiyatlarini ifoda etadigan, ongli, ijodkor insondir.

Komil inson tarbiyasi necha asrlardan beri jamiyatning muhim va asosiy vazifalaridan bo'lib kelgan. Hozirgi kunda bunday vazifani amalga oshirishning turli usul va vositalari ishlab chiqilmoqda. Bizningcha, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda komil inson tarbiyasi yetakchi muammo bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ham komil inson masalasi jamiyatni rivojlantirishning ajralmas qismi sifatida tavsiflanadi. Jamiyatdagi sog'lom ma'naviy muhit, jamoatchilik fikri, jamoaning shakllanganlik darajasi, uning o'z a'zosiga talabchanligi, o'zaro yordam, jamoa nazorati va hokazolar jamoa a'zosi rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishi, uning yo'nalishini belgilab berishi mumkin. Shu sababli bu

tarbiya sub'ektlarining ma'naviy-ahloqiy talablarini uyg'unlashtirish va yagona talablar ishlab chiqish, yosh avlod tarbiyasiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Oila, ayniqsa, mahallaning tarbiyaviy ta'siri ko'rilyotgan muammo yechimini hal qilishning muvaffaqiyatini ta'minlovchi asosiy omillardandir. Shuningdek, tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, komil insonlarning o'sib va rivojlanishida televidenie, radio, ommaviy axborot vositalarining o'rni kattadir. Bu borada mustaqil O'zbekistonimizda ma'lum ishlar amalga oshirilmoqda, lekin biz bu mavzudagi ruknlarni ko'paytirmog'imiz lozim. Chunki, komil inson g'oyasi nafaqat alohida shaxslarni, balki butun bir xalqlarni yuksak taraqqiyot sari yetaklagan, ularni ma'naviyat va ma'rifat bobida tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodlarni voyaga yetkazish haqida qayg'urmagan xalqning, millatning kelajagi yo'q. Shuning uchun jamiyatimizda sog'lom avlodni tarbiyalash, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksak darajaga ko'tarish orqali barkamol insonlarni voyaga yetkazishga alohida e'tibor berilmoqda. Umuman olganda, inson o'z aql-zakovati, dunyoqarashi, tafakkuri bilan komillikka intilib boraveradi.

Inson tabiatan erkinlikka, ezgulikka intilib yashaydi. Aslida hayotning mazmuni ahloqiy qadriyatlar bilan barhayotdir. Mana shunday ehtiyoj ma'rifiy va madaniy ta'limotlar hosilasi sifatida Rumiyning komil inson g'oyasi va uning mezonlari davr ruhiga monand shakllantirilib, rivojlantirilib kelingan. Ayni paytda ta'kidlash lozimki, insoniyat uchun kulfatlar keltiruvchi o'zaro urushlarga qarshi o'laroq, Rumiyning bag'rikenglik va ahloqiy ta'limotlari xaloskor g'oyalar sifatida vujudga kelgan.

Aynan Mavlono Rumiyning komil inson to'g'risidagi nazariy - ahloqiy qarashlarining ahamiyati masalasini tadqiq qilish hozirda tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Sababi, aynan Rumiyning insonning ruhiy olamini boyitishga, shu asosda axloq ustuvorligini ta'minlash lozimligiga o'z e'tiborini qaratadi. Bunday g'oyalarning zaminida o'zlikni anglash, haqiqatni tanish va shu orqali dilning muolajasiga erishish kabi muammolarning falsafiy yechimlari

berilgan. Shuning uchun ham Jaloliddin Rumiylar «Inson buyuk bir mo'jiza va uning ichida hamma narsa yozilgan. Biroq zulmat va pardalar borki, ular yozuvlarni o'qishga imkon bermaydi. Zulmat va pardalar, turli-tuman mashg'ulotlar insonning dunyo ishlari borasida olgan tadbirlari va ko'ngilning so'ngsiz orzularidir»³³, deydi.

Rumiylar tasavvufiy ta'limotining asosida adolat, haqiqat, to'g'rilik, mehr-shafqat, insof, imon, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi umuminsoniy g'oyalarni targ'ibot qiluvchi bir qancha diniy-ma'rifiy g'oyalar yotadi. Bunday g'oyalar davr sinovlaridan o'tib, inson - jamiyat - davlat munosabatlarida adolatli ma'naviy-ahloqiy tizimning g'oyaviy negizlarini shakllantirishda poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Rumiylarning komil inson to'g'risidagi g'oyalarini o'lmasligi mazkur g'oyaning tub mohiyatini anglaganligi bilan ham belgilanadi. Shuning uchun ham o'z davrida Hazrati Mavlono Rumiylar «aliymonu shavqan va zavqan va ana g'arqa fiha», ya'ni «Haqiqat va iymon nurlari uchun lozim bo'lgan shavq va zavq bo'lganligidan, men ularga sho'ng'idim» degan edilar. Allomaning ushbu so'zlaridan chiqadigan xulosa shuki, inson o'zining komillik darajasiga chiqqandagina taskin topadi. Shu bilan birga, boshqa tasavvuf ahli ham Haq taologa komil - o'zi intiluvchi, ya'ni mohiyatlar mohiyatiga yetishish uchun intiluvchi deb qarash, ular fikrlarining asoslarini tashqil etgan³⁴. Bu haqida Jaloliddin Rumiylar «Yo'llar xilma-xil bo'lsa ham, lekin maqsad birdir»³⁵ deb, «Men yetmish uch mazhab bilan birdirman»³⁶ – degan fikrlarni bildiradi. Biroq, bundan ayrim islomshunoslar Rumiyni kufr keltirganlikda ayblashadi. Lekin, shuni aytib o'tish kerakki, nemis olimasi Annamariya Shimmel o'zining «Rumiylar» nomli kitobida «Rumiylar dunyo ishlarining barchasini adolatli tarzda hal qilishligi mumkin emas, lekin adolatli

³³ Румий Ж. Ичингдаги ичингдадир.-Т.: Ёзувчи, 1997. -Б. 51.

³⁴ Комилов Н. «Тасаввуф» 2 китоб «Тавҳид Асрори», Адабиёт ва санъат, Ўзбекистон,-Т.: 1999. Б.7.

³⁵ Жалолиддин Румий. «Маънавий маснавий» Шарҳ,-Т.: 1999. Б. 8.

³⁶ Комилов Н. «Тасаввуф» 2 китоб «Тавҳид Асрори», Адабиёт ва санъат, Ўзбекистон,-Т.: 1999. Б.5.

yo‘llar bir qancha bo‘lishi mumkin va kishi adolat yo‘lida mashaqqatlar chekadi” degan xulosaga keladi.

Buning falsafiy xulosasi shundaki, dinlari, tillari, e’tiqodlari boshqa-boshqa bo‘lgan insonlar, Alloh oldida bir ekanliklari va qilgan yaxshi amallari qatorida yomonliklarining jazosini ham Allohdan olajaklarini tushunib yetmoqdalar.

Davrlarni o‘zgartirgan inson tafakkuri, onggi mana necha asrlar o‘tsa hamki, mazhablar, oqimlar orasidagi kurashlarni to‘xtata olmayapti. Tasavvuf falsafasining asl mohiyati, mazmuni ham shundan iboratki, inson qaysi tarixiy davr, qanday ijtimoiy-siyosiy tizimda yashamasin, avvalo u komil, yetuk inson bo‘lib qolishi kerak. Komil insonning maqsadlari olijanob bo‘lib, jamiyat ravnaqiga xizmat qiladi va uning faoliyati ezgulikka yo‘naltirilgandir. Shuning uchun ham tasavvuf Sharq falsafasining yuksak ahloqiy yo‘nalishlaridan hisoblanib kelingan.

Hozirda mazkur ma'naviy-ahloqiy g'oyalardan foydalanish muhimligi haqida Islom Karimov fikr yuritib, “falsafa ilmini, Sharq falsafasini teran o‘rganish, shu asosda ulug‘ madaniyatimiz va qadriyatlarimiz ildizlarini jonlantirish, yaqin o‘tmishimizdan qolgan mafkuradan xalos bo‘lish, o‘zligimizni asrlar sinovidan o‘tgan, ulug‘ ajdodlarimiz bizga qoldirgan milliy mafkura va tafakkurimizni tiklash, uni zamonaviy-umumbashariy ruh bilan boyitish hammamizning dolzarb vazifamizdir”³⁷ degan edilar. Shuning uchun ham hozirda olimlarimiz, tasavvufshunos faylasuflarimiz ma'naviy-ma'rifiy merosimizni chuqur o‘rganishga astoydil kirishdilar va ular tasavvuf falsafasidan xalqimizni bahramand qilib kelmoqdalar. Umuman olganda, Mavlono Rumi va boshqa tasavvuf ahillari barcha insonlarni komillikka va ezgulikka intilishga chaqirganlar. Zero, “tasavvuf gumanizmining

³⁷ Каримов И.А. Биздан озод ва обод ватан қолсин.-Т.: Ўзбекистон, Ж. 2., 1996. Б. 260.

umumjahoniyligi va o'lmashligi shundandir"³⁸. Bulardan ko'rinadiki, komil va yetuk insonlar jamiyat taraqqiyoti, Vatan ravnaqi yo'lida jamiyat manfaatini ko'zlagan holda faoliyat ko'rsatadilar. Agar jamiyatda shakllangan ma'naviy-ma'rifiy masalalarga e'tibor berilmas ekan, bu jamiyatda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, diniy inqirozlar yo'z beradi. Chunki, "xalqi ma'naviy jihatdan qashshoq bo'lgan mamlakat, tabiiy boyliklari behisob bo'lsa ham, hych qachon buyuk davlat bo'la olmaydi". Har bir inson o'zining betakror tafakkur salohiyatiga egadir. Ulardagi faoliyat erkinligi, jamiyatning taraqqiyotiga yo'z tutishi uchun o'rinishlari, komillik tamoyillarining amalda o'z isbotini topishi, ma'naviy-madaniy rivojlanish darajasiga mos keladi.

Insonning ijtimoiy-ma'naviy kamoloti demokpatik islohotlapimizga ham, fuqapolik jamiyati va huquqiy davlat qupishdan ibopat stpategik maqsadimizga ham bab-bapobap taaluqlidip. Aslida tasavvuf ham shu maqsadga xizmat qiladi. Bu o'pinda yana N. Komilovning fikrlapiga mupojat qilamiz. "Tasavvufdagi komil inson tushunchasi bilan bizning tushunchalapimiz o'ptasida fapq bop, albatta. Hatto ma'pifatli hap kishini komil inson deya olmaymiz. Tasavvuf ta'limoti bo'yicha komil inson allaqanday ideal, Xudoga yaqin bip vujud. O'sha G'ayb olamidan oddiy odamlapga xabap bepadigan, ilmi, o'sha G'ayb ilmiga ulangan kishidip. Albatta, ma'naviy bapkamollikni niyat qilap ekanmiz, idealga intilishimiz kepak bo'ladi. Xo'sh, idealga intilish nima degani o'zi? Menimcha, bu idealning xislatlapini o'ziga singdipa bopish, o'zida kashf etish, paydo qilish, shakllantipish deganidip". Demak, komillikda kishi axloqan eng pok, eng musaffo, eng yetuk timsol sifatida o'zini hayol etadi va ushbu komillik darajasiga ump bo'yi talpinib yashaydi.

Ma'lumki, Rumiyning komil inson g'oyasi bir necha asrlik turkiy va forsiy adabiyot olamida shariat va tariqat hukmiga muvofiq keluvchi ilohiy-irfoniy g'oyalar ideali hisoblanadi. Rumiyning komil inson g'oyasi birinchidan,

³⁸ Комилов Н. «Тассавуф» иккинчи китоб «Тавҳид Асрори»-Т.: Адабиёт ва санъат, Ўзбекистон, 1999. Б. 32.

uning ilohiy olam asroridan olingan tabiiy zavqi, unga intilishi mahsuli bo'lsa, ikkinchidan, yosh avlodni komil qilib tarbiyalashni yo'lga qo'yishda ko'mak beradigan amaliy qo'llanmalar yaratish zarurati o'laroq dunyoga kelgan. Biroq bu siradagi g'oyalar ichida har ikki jihatga ko'ra ham muhimlik kasb etadigan durdonalar mavjud.

Buyuk shayx va shoir, tasavvuf ilmining bilimdoni, mavlaviya tariqati asoschisi Mavlono Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy ma'naviy" manzumasi qayd etilgan komillik g'oyalarining mushtarak fazilatlarga egaligi bois alohida qadr-qimmat kasb etgan. Allomaning mazkur nodir asarining dunyoga kelishida muqaddas kitoblar hamda hadislar, qadim Sharqda asrlar davomida yaratilgan ilohiy-irfoniy va ahloqiy asarlar o'ziga xos manba bo'lib xizmat qilgan. Sharq olamida bu asarning Qur'oni karim va hadislardan keyingi muqaddas manba sanalishi, hatto asar haqida "Masnaviyi ma'naviy"i Mavlaviy – Hast Qur'on dar zaboni pahlaviy", ya'ni "Mavlaviy (Jaloliddin Rumi) ning "Masnaviyi ma'naviy"si pahlaviy tilidagi Qur'ondir" degan e'tirofga to'liq ta'rifning tarqalgani bejiz emas. Chunki asarda Qur'on oyatlari va hadislar mazmun-mohiyatini tasavvufiy qarashlar bilan uyg'unlashtirgan holda bayon etish yetakchi tamoyil bo'lib, bundan ko'zlangan murod, shubhasiz, komil inson tarbiyasiga hissa qo'shishdan iborat bo'lgan.

Inson ahloqiy kamoloti masalasi hamma zamon va davrlarda dolzarb muammolardan biri bo'lgan. Axloq insonning inson ekanligini ko'rsatuvchi mezon sifatida qadrlidir. O'rni kelganda u jamiyatni tanazzulga uchratishi va yo aksincha, gullab-yashnashi uchun muhim omil bo'lishi mumkin. Komil inson g'oyasi nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari yetaklagan, ularni ma'naviyat va ma'rifat sohasida tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodlarni voyaga yetkazish haqida qayg'urmagan xalqning, millatning kelajagi yo'q. Bunday xalq va millat tanazzulga mahkum. Komil inson, eng avvalo, ishonchli va fidoiy bo'lishi lozim. U buning uchun tinimsiz, o'zini ayamadan o'z hukmdori,

o'z otasi va o'zidan katta barchaga birday xizmat qilishi va doimo kamolot sari intilishi zarur.

Insonning o'z-o'zini idora etishi, nafsini tanish va boshqara olishi, nafs tarbiyasi masalasi, axloqan fazilatli kishini tarbiyalash uchun muhim.

Tadqiqotdan quydagicha nazariy va amaliy xulosaga kelish mumkin:

- Barkamol insonning tarbiyasida Rumiyning komil inson va uni tarbiyalash yo'llarini o'rganish foydalidir. Bularning barchasi mavlaviya tasavvufiy ta'limotining nazariy tomonini ifodalaydi. Uning amaliyot, ayniqsa hozirgi mustaqillik davri voqyeliklari bilan bog'liq, nihoyatda dolzarb jihatlarini hisobga olish zarur;

- Respublikamizning ko'zga ko'ringan olimlari, tasavvufshunos faylasuflar hamkorligida Rumiyni ijodiyotini tadqiq qilishga bag'ishlangan tadqiqotlarni qo'llab quvvatlash va rag'batlantirish ham hozirda dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Chunki, Rumiyni ijodiyotini o'rganish bo'yicha, Turkiya, Eron, Germaniya, Italiya va boshqa shu kabi xorijiy davlatlarda ko'pgina samarali ishlar amalga oshirilgan;

- Bugungi madaniy dunyo butun insoniyat bilan hamnafas bo'lgan kishini ardoqlaydi. Shunday talablarga Rumiyning ahloqiy-falsafiy pozitsiyasi javob beradi. Shuning uchun ham har bir yosh avlod o'z-o'zini anglashi, o'z his-tuyg'ularini boshqara bilishi, o'z fikri, qiyofasi, qarashiga ega bo'lishi uchun Rumiyning tasavvufiy g'oyalaridan bahramand bo'lishi kerak.

- Mavlaviya ta'limotining ahloqiy va bunyodkor g'oyalari milliy g'oyaning diniy-ma'rifiy, falsafiy ildizlaridan biridir. Bu ta'limotning ahloqiy va bunyodkor g'oyalari mamlakatimizning bosh g'oyasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Undagi bag'rikenglik, mehnatsevarlik, fidoiylikka undovchi bunyodkor fikrlar, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, millatlararo totuvlik, ijtimoiy hamkorlik, komil inson, diniy bag'rikenglik g'oyalarini insonlar qalbi va ongiga singdirishga asos bo'ladi. Mana shu g'oyalarni hayotga tadbiiq etishda mavlaviya ilmiy-jamoatchilik markazini tashqil etishga undaydi.

- Sharq mutafakkirlari hamma davrlarda o'zining chuqur ma'naviy salohiyati bilan ajralib turgan. Ular insonni ahloqiy kamol toptirish, ma'naviy qiyofasini shakllantirish, jamiyat ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotining muhim omillaridan biri deb qarashgan. Faylasuflarning dunyoni teranroq anglashi, olam va odam ruhiyati sirlarini idrok etishi va hayot ziddiyatlari mohiyatini tushunishda Mavlono Rumiyning ahloqiy-falsafiy ta'limotining ahamiyati kattadir. Rumiya ta'limotida ilgari surilgan g'oyalar komillikning botiniy qonuniyatini bilib olishga undaydi. Rumiya ijodi Sharq ilmi hikmatlari, ma'nolar dunyosining yangi sintezi, uyg'unlashuvi va ayni vaqtda yuqori bosqichga olib chiqilgan, rivojlantirilgan ko'rinishidir. Shu bois mutasavvuf tomonidan ilgari surilgan ilg'or g'oyalar tafakkur ahlini junbushga keltirib, qalblarni zabt etdi. Shuning uchun faylasuf-shoir asarlari hozir ham o'z mo'jizakor qudratini saqlagan holda hamon o'ta dolzarb va e'tiborlidir. Shu ma'noda zamonaviy ahloqiy konsepsiyalarning asosiy maqsadini o'zida ifoda etgan komil inson g'oyasi manbalarini boyitishda Rumiya ijodiyotidan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega.

- Inson muammosi eng qadimgi davrlardan beri Sharq va G'arb falsafasining o'zak masalasi bo'lib kelmoqda. Shariat hukmlari ijrosi va insoniy o'zlikni anglashdagi oliy maqom natijasi o'laroq yo'zaga kelgan tasavvuf ta'limotida ham inson muammosi, ta'limotning mohiyat va maqsadini o'zida namoyon etgan masala sifatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Rumiya ijodida komil inson masalasi yuksak darajadagi badiiy-falsafiy g'oyalar asosida yoritib berilgan bo'lib, uning ma'naviy qiyofasi mohirlik bilan tasvirlangan. Jumladan, Rumiyning e'tirof etishicha, "Inson buyuk mo'jiza va uning ichida hamma narsa yozilgan"³⁹. Bu botiniy bilimlar inson boshi o'zra charaqlab turgan quyoshga o'xshaydi. Insondagi bu quyosh uning jo'z'iy aqliga ham kuch - quvvat beradi va bu aqlni poklanishiga olib keladi. Jo'z'iy aql har kungi hayotimizdagi muammolarni bartaraf qilishga yordam berib turadi. U ham bamisoli bir

³⁹ Жалолоддин Румий. Ичиндаги ичиндадур. Улуғбек Хамдам таржимаси. Т. Янги аср авлоди. 2003. Б-54.

quyoshga o'xshaydi. Lekin jo'z'iy aqlning nuri qalbimizda yashiringan mehr quyoshining in'ikosidir. Bu ikkala quyosh insonni ruhiy va jismoniy barkamollik yo'lidan yetaklaydi.

-Komil insonni tarbiyalashda Rumiyning o'rnini ko'rsatib berish va undagi g'oyalarni hayotga tadbiq etishning nazariy va amaliy uslublarini aniqlash ham ishning qanchalik ma'suliyatli va samaradorli ekanligini ko'rsatib turibdi.

2. 2. Jaloliddin Rumiyl falsafiy-tasavvufiy merosining yosh avlodni komillik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati

Mustaqilligimizning poydevorini mustahkamlashda, mamlakatimiz rivojlanishida, O'zbekistonning buyuk davlatga aylanishida, yosh avlodni intellektual salohiyatini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya ishlarini oqilona yo'lga qo'yish, shuningdek, ularni zamonaviy ilm - fan, madaniyat, texnika va texnologiya yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish benihoya katta ahamiyatga ega. Chunki taraqqiyot taqdirini ma'naviy-ahloqiy jihatdan yetuk iqtisodiy hamda texnikaviy bilimlar va murakkab texnologiyani egallagan irodasi baquvvat, iymoni butun, zamonaviy fikrlaydigan yuksak salohiyatli, iste'dodli yoshlar hal etadi. Shuningdek, mamlakatimizning kelajak taqdiriga xal qiluvchi ta'sir ko'satadigan asosiy omil fan, texnika, madaniyat, ma'rifat, ta'lim – tarbiya, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar borasidagi yangiliklar va yutuqlarni, jahon mamlakatlari tajribalarini keng ko'lamda o'rganish, rivojlantirish va hayotga joriy etish hamda iste'dodli yoshlar intellektual salohiyatini o'rganishdan ham iboratdir.

Hozirda mamlakatimiz hayotining turli jabhalarida tub islohotlar keng tus olmoqda. Shular qatori ta'lim tizimida ham islohotlar samarali tarzda amalga

oshirilmoqda. Mamlakatda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida» gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» ta'lim sohasini tubdan isloh qilish va jahon andozalariga javob beradigan kadrlarni tayyorlashni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ygan. Shuningdek, kadrlar tayyorlashning bosh maqsadi - komil inson va yetuk malakali mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va bunda qo'yilayotgan talablar mustaqil, erkin fikrlovchi shaxsni shakllantirish, uning davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etish hamda iqtidorli va iste'dodli yoshlarni izlab topishni ta'minlashga qaratilgandir. «Biz oldimizga qanday vazifa qo'ymaylik, qanday muammoni yechish zaruriyati tug'ilmasin, gap oxir-oqibat, baribir kadrlarga va yana kadrlarga borib taqalaveradi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimizning kelajagi, o'rnimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq aytganda, qanday kadrlar tayyorlashimizga bog'liq»⁴⁰, deydi Prezidentimiz. Yangicha dunyoqarash va bilimlarga ega bo'lgan barkamol, tashqilotchi hamda zukko kadrlar va mutaxassislarga ega bo'lish uchun, birinchi navbatda, ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, iste'dodli yoshlar intellektual salohiyatini hozirgi davr talabi darajasiga ko'tarish zarur va o'ta muhimligini hayot taqozo etmoqda.

Umuman olganda, ta'lim-tarbiya tizimida komil insonni shakllantirish, jamiyat taraqqiyotiga ta'lim tizimi sohasi orqali erishish bu davlat, jamiyat, shaxsning bugungi va kelajak oldida turgan bosh vazifasidir. Boshqacha aytganda, hozirgi vaqtda milliy g'oya va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" asosida ta'limni rivojlantirish, uni takomillashtirish uchun zarur shart-sharoitlarning dolzarb yo'nalishlarini belgilab olish juda ham zarur. Zero, «Ta'lim to'g'risida» gi qonun «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» mazmun-mohiyati va ahamiyatiga ko'ra, zamonga mosligi va har qanday talabga javob bera olishi bilan harakterlanadi. Chunki, u nafaqat hozirgi davrni, balki kelajakni ham o'zida chuqur ifodalagan qudratli strategik hujjatdir. Mazkur xujjatlarni

⁴⁰ И.А.Каримов. Ўзбекистон XXI асрга интилоқда. Т., «Ўзбекистон», 1999 йил, В 18

joriy qilish esa, iste'dodli yoshlarni avaylab-asrash va ularni komil inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Bizningcha, bu ma'noda komillikka intilish - har bir insonning muqaddas orzusi bo'lib qoladi. Demak, hozirda komillik fazilatlari quyidagicha tasniflanadi: zehnlilik, bama'nilik, xotirjamlik, lo'ndalik, notiqlik, tanqidiylik, dadillik, omilkorlik, savodxonlik, qiziquvchanlik, ishqibozlik kabilardir.

Bunday fazilatlarni esa allomalarimiz qoldirib ketgan ilmiy-madaniy meroslardan ham turli darajada ta'rif va tasnif etilganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Jaloliddin Rumiyning barcha asarlarida inson borliqdagi eng buyuk zot sifatida ta'riflanadi. Shu ma'noda alloma insonlarni quyidagicha ta'rif va tasnif etadi: "Insonni uch holi mavjud. Birinchisi: U Allohning atrofida parvona bo'lmaydi. Xotin, erkak, bola-chaqa, mol-dunyoga va toshu tuproqdan bo'lgan narsalarga xizmat qiladi, ularga topinadi. Ikkinchisi: Insonda bilim va ma'rifat hosil bo'lsa-da, Allohdan boshqa narsaga sig'inmaydi. Uchinchisi: Inson ikkinchi holda yana-da ilgarilaydi va sukut saqlaydi". Bundan ko'rinadiki, Jaloliddin Rumiyning falsafiy-tasavvufiy qarashlarida insonning ahloqiy hayoti, uning ahloqiy tarbiyasi bilan bog'liq ekanligiga alohida e'tibor beriladi. Shu ma'noda irfoniy asosga ega bo'lgan go'zal fazilatlar insonga xos narsa, faqat uning mulki emas. Rumiya ta'biricha, inson olamga, kamolotga erishish va asliga qarab intilish uchun keladi. Shuning uchun ham Mavlono "Ishq – nimagadir muhtojlik. U holda ehtiyoj – asl muhtoj esa – nur"⁴¹ degan g'oyani ilgari suradi.

Hozirda biz ko'pgina falsafiy adabiyotlarda komil inson tarbiyasi degan iboralarni ko'p uchratamiz. Komillikning esa xilma – xil talqinlari bor. Jumladan, islomiy ta'limotda komillik timsoli sifatida Haq nazarda tutiladi. Shuning uchun mavlaviya ta'limotida ham insonning kamolotga erishuvi, Haqqa talpinishidir deyiladi. Demak, bundan ko'rinadiki, komil insonni tarbiyalash, moddiy - hayvoniy xirslarni barham ettirib, ilohiy – rahmoniy sifatlarni

⁴¹ Жалолиддин Румий. Ичиндаги ичиндадур. Улуғбек Хамдам таржимаси. Т. Янги аср авлоди. 2003. Б-124.

ko'paytirish orqali olib boriladi. Komil inson esa, o'z navbatida jamiki insonlarning haqiqati, ya'ni odamiylar odamiysi bo'lib qoladi. Komillikning har bir davrga xos ijtimoiy mezonlari ham bo'lgan. Buning boisi shuki, odamzod aqliy, ruhiy va jismoniy iqtidori, iste'dodi, salohiyati jihatidan bir – biridan farqlanadi. Darhaqiqat bir – biridan farqlanuvchi insonlarni ahloqiy tarbiya orqali komillikka yetkazish mumkin. Shu ma'noda, mavlaviya tariqatida, komil insonning o'ziga xos axloq qoidasi ishlab chiqilgan bo'lib, bu sifatlarga ega bo'lish har bir odamning orzu – armoni deb qaralgan. Yana shuni ta'kidlash lozimki, Rumiylashgan davrda yaxshi axloq, komil inson haqidagi tushunchalar nisbiy xususiyatga ega bo'lgan. Ammo masala qanday qo'yilishidan qat'iy nazar, komil inson haqidagi g'oyalar islom xususan, tasavvuf uchun katta ijtimoiy – ahloqiy ahamiyatga ega bo'lgan.

Bizningcha, inson to'g'ri tarbiya topmasa, qaysi davr bo'lishidan qat'iy nazar uning xatti-harakatlari jamiyatga zarar keltiradi. Shuning uchun ham Rumiylashgan "Inson o'zining farqlash xossasini har turli g'arazdan tozalashi va dindan yordam qidirishi lozimdir"⁴² deydi. Bundan ko'rinib turibdiki, jamiyat ijtimoiy hayotidagi barcha muammolar yechimi insonning ma'naviy-ahloqiy jihatdan yetukligi va e'tiqod darajasini yuqoriligi bilan ham belgilanadi.

Mamlakatimizda hozir erkin, demokratik fuqarolik jamiyatini to'zishga kirishganmiz. Bu jamiyat ma'lum ma'noda g'arbliklar tasavvuridagi fuqarolik jamiyatlaridan farq qiladi. G'arbda bu borada e'tibor asosan huquqiy yo'nalishning ustuvorligiga qaratilsa, bizda ahloqiy-ma'naviy yo'nalishning ustuvorligini ko'rish mumkin. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, biz qurayotgan fuqarolar jamiyati G'arb dunyosi uchun o'rnak bo'lishi mumkin. Bu faxrlanish hissidan kelib chiqqan balandparvoz gap emas. Masala shundaki, g'arb jamiyatlari hozirgi paytda ahloqiylikni huquqiylikning yuqori bosqichi sifatida qabul qilmoqdalar. Lekin ular uchun «ahloqiy o'rin bo'shatishdan» ko'ra, «huquqiy o'rinni egallab turish» nafaqat qonuniy, balki zavqliroq

⁴² Жалололдин Румий. Ичиндаги ичиндадур. Улуғбек Хамдам таржимаси. Т. Янги аср авлоди. 2003. Б-18.

tuyo'ladi. Bizning mentalitetimizda esa, buning aksi - har bir «ahloqiy o'rin bo'shatish», «komillikning ahloqiy mezonini ishlab chiqish» yoshlar qalbiga quvonch, o'z insonlik burchini bajarganlik hissini to'ldiradi.

Jaloliddin Rumiyning falsafiy-tasavvufiy qarashlarida ifodalanishicha, insonning qalbi mol – dunyodan emas, ezgu ishlardan, kimgadir mehr – oqibat ko'rsatishdan va Alloh visoliga yetishishdan ko'proq halovatlanadi. Chunki unda ilohiy harakat va nur mavjud bo'ladi. Bu nur ezgu amallardan quvvat oladi va xatto inson tanasiga, yo'ziga go'zallik bag'ishlaydi. Vaholanki, har bir inson shu go'zallik va quvvatga ehtiyoj sezib yashaydi. Insoniyat istiqboli, jamiyat ravnaqi ma'naviyatiga, insonlarning ezgu amallariga, ularning bir – birlariga qay darajada mehr – oqibatli bo'lishiga bog'liqdir. Millat ma'naviyati esa adolat barqaror bo'lgandagina yuksaladi. Qonunlar ishlamagan joyda ma'naviy qashshoqlanish boshlanadi. Qaysi jamiyatda tamagirlik, poraxo'rlik, mol – dunyo to'plash, shuhratparastlikni odat qilishsa, o'sib kelayotgan yosh avlod ham shundan «ibrat» oladi. Shuning uchun ham bunday illatlarga qarshi kurashishda inson Rumiyni fikricha, «Ollohdan umidni o'zmaslik kerak».

XX asrda iqtisodiy manfaatdorlik kayfiyati benihoya yuksaldi. Buning ta'sirida odamlarning turmush tarzi birmuncha yaxshilandi. Bu hodisa dunyoning rivojlangan davlatlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Faqat pulni orqasidan quvish bu moddiy farovonlik yaratishga behad samarali ta'sir ko'rsatadi. Biroq u insonlarni xudbinlashishiga ham olib kelmoqda. Shuning uchun ham hozirda nafsning cheksiz extiyohlari tufayli razolatga botgan dunyoni qanday poklash mumkin, degan savol ustuvor bo'lib qolmoqda. Rumiyni esa, bu savolga o'z vaqtida butun asrlarga yetadigan javob berib, insoniyatga katta tuxfa in'om etgan edi. Mavlono ta'kidlashicha, «...inson nafsida shunday bir narsa borki, hayvonlarda yo'qdir, deyishadi. Ammo bu – inson ulardan yomon degani emas. Balki shundaydir: Insondagi yomon fe'li-ho'y, nafs va baxtsizlik mavjud bo'lgan yashirin javhardadir. Faqat fe'llar, baxtsizliklar va yomonliklar javharlarning pardalariga aylangan. Javhar qancha go'zal va buyuk bo'lsa, parda

ham shunga yarashadir”⁴³ Bu javhar esa o‘z navbatida insonning nafs qulligidan qutilishida, insonlarning bir – biriga ta’masiz, samimiy mehr – oqibat ko‘rsatishida namoyon bo‘ladi. Agar shunga erishilsa, insonni barcha illatlari barham topadi.

Rumiyning adabiy-badiiy va falsafiy merosiga e’tibor bersak, respublikamiz mustaqillikni qo‘lga kiritgunga qadar ma’naviy merosimizning tarkibiy qismi bo‘lmish tasavvuf ilmidan bebahra bo‘lib, undan ma’naviy oziqlanmay kelganligimizga amin bo‘lamiz. Chunki, tasavvuf ilmi islom ma’naviyatining, aniqroq qilib aytilganda jahon ma’naviyatining tarkibiy qismi, buyuk bir ta’limot ekanligi barchamizga ayon bo‘ldi. Agar biz e’tibor bersak, tasavvuf insonda orqaga qaytmaydigan kuchli bir irodani kashf qilish bilan birga, insonni donolikka chorlaydigan xususiyatga ega bo‘lgan ta’limot sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham komillik xususiyatiga ega bo‘lgan bu ta’limot qaerda o‘z mujassam ifodasini topsa, u yerda jamiyatga xos bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy, ahloqiy masalalarga oid bo‘lgan haqiqat yo‘zasidan inson to‘liq fikrlay oladi. Shu ma’noda, Rumiyning tasavvufiy ta’limoti insonni ruhiy nafisligi va erkinligini targ‘ib qiluvchi ta’limot ekanligidan dalolat beradi. Rumiyning adabiy-badiiy va falsafiy qarashlariga e’tibor bersak, inson hayotining ma’nosi faqat yeb-ichishdan, kiyim-kechak va oziq-ovqat iste’mol qilishdan iborat emasligi, shu bilan birga uning moddiy asoslari va ma’naviy–ahloqiy fazilatlari - adolat, insonparvarlik, yaxshilik, insof, diyonat, haqiqat, ozodlik, odamlar hayoti va faoliyatida muhim ahamiyat kasb etganligiga amin bo‘lamiz. Shuningdek, bunday komil insonga xos ahloqiy fazilatlar esa, odamlarga hayotning mazmunini chuqurroq tushunish, jamiyat taraqqiyoti qonun-qoidalaridan ijobiy foydalanish, o‘zlarining kundalik xatti-harakatlarini ana shu ahloqiy mezonlar talabiga mos tarzda amalga oshirish imkonini berishini ko‘rishimiz mumkin. Bulardan ko‘rinadiki, Rumiyning

⁴³ Жалололдин Румий. Ичиндаги ичиндадур. Улуғбек Хамдам таржимаси. Т. Янги аср авлоди. 2003. Б 197.

adabiy-badiiy va falsafiy merosiga xos ahloqiy qoidalaridan huquqiy-demokratik va fuqarolik jamiyati qurishda va asosan komil insonni tarbiyalashda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, modernizatsiyalash va demokratlashtirish jarayonini kechirayotgan jamiyatimiz uchun muhim, hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan narsalardan biri nafsni tiyish, uni chegaralash muammosidir. Bu muammoni hal etish xalqimiz ongi va qalbiga g'oyaviy-nazariy, ma'naviy, ahloqiy tarbiya asoslarini singdirish orqali amalga oshadi. Ya'ni, jonajon O'zbekistonimizning taraqqiyot strategiyasi fuqarolarning o'zaro tengligi, diniy bag'rikengligi, Vatan ravnaqi yo'lidagi hamjihatligi, yurt tinchligini ta'minlashi, halqning farovonlik darajasi, millatlararo totuvlik kabi ezgu g'oyalar bilan belgilanadi. Zero, O'zbekistonimizning taraqqiyot strategiyasining asosida, g'oyaviy negizlarida inson omili, xususan, komil inson va barkamol avlodni shakllantirish masalasi turadi.

Muxtasar qilib aytganda, O'zbekiston mustaqilligi sharoitida jamiyat va shaxs ma'naviyati, uning komillashishi masalasi o'ta dolzarblashmoqda. Uning ijtimoiy qamrovi tobora kengayib bormoqda. Bu masalaning ijobiy yechimida tasavvuf xususan, Jaloliddin Rumiy qarashlarining ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Shu boisdan ham yoshlarimizni mavlaviya tariqatining ahloqiy g'oyalarini ochib berishga qaratilgan tadqiqotlarni chuqurroq va teranroq tafakkur etib, mushohada etish ularni g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan chiniqtirish va bu orqali ularni ahloqiy g'oyalar bilan qurollantirish lozim.

E'tiqodli, iymonli va ahloqiy fazilatlari yuksak fuqarolarga ega davlatgina mustaqil va barqaror rivojlana oladi. Shu o'rinda I. A. Karimovning «Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyalarni egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy ma'naviyat, salohiyat – ma'rifatli insonning ikki qanotidir» degan so'zlarini eslab o'tish maqsadga muvofiqdir.

Jaloliddin Rumiylar komil inson tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratgan ekan, u shu jamiyatda yashayotgan boshqa insonlarga har tomondan o'rnak bo'lishi kerakligiga alohida e'tibor beradi. Komil insonning o'zini Rumiylar har tomonlama ya'ni ham botiniy, ham zohiriy pok bo'lgan kishi deb tushuntirib o'tadi. Komil insonga qo'yiladigan dastlabki talab - bu uni avvalo o'z Vatanini, e'tiqod maskanini tushunishi bilan belgilanadi.

Jaloliddin Rumiylar komil insonni tarbiyalash deganda faqatgina diniy bilimlarni nazarda tutmaydi. Chunki, uning fikricha, bir qator dunyoviy dinlar ham o'z mohiyatlariga ko'ra komil inson tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanadilar. Rumiylarning fikricha, go'zal ahloqli bo'lish bu insonning yuksak fazilatlaridan biridir. Shuning uchun ham mavlaviya tariqatida ham go'zal sifatlar ulug'langan. Va, komil inson bu, har tomonlama yetuk inson deb tushunilgan. Shuningdek, komillik bu go'zal xulqli, chiroyli fazilat egasi demakdir. Agar biz Jaloliddin Rumiylarning komillik haqidagi qarashlariga e'tibor bersak, u komillikni atrofdagi odamlarga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lishlikda, o'zini kamtar tutishlikda, qilgan ishlarini tama' qilmaslikda va o'zini burchini hamisha anglab yashamoqlikda deb tushunganligiga amin bo'lamiz. Shuningdek, alloma go'zal axloq insonning kamolot darajasini aks ettiruvchi asosiy mezon ekanligini tan olib, go'zal ahloqli bo'lishning yo'llarini o'rgatgan. Uningcha, inson tabiatida, o'zligida yaxshilik va yomonlik, saodat va shaqovat, nur va zulmat yashiringanligidan inson o'z-o'zini nazorat etib, nafsini jilovlab kamolotga intilishi lozim va bu ahloqiy fazilatlarining shakllanishiga olib keladi. Va, mustahkam e'tiqodli bo'lish ahloqiy kamolot sari yetaklovchi asosiy mezondir. Bundan ko'rinadiki, Jaloliddin Rumiylarning komillik haqidagi qarashlari nafaqat o'z davri uchun balki, hozirda ham qimmatlidir, chunki mazkur ahloqiy g'oyalar yoshlarni faollikka, fidoiylikka, mehnatsevarlikka, vatanparvarlikka undaydi. Shuningdek, milliy falsafani tadqiq etishning g'oyaviy asoslaridan biri bag'rikenglik g'oyasidir. Shu ma'noda Jaloliddin Rumiylarning ahloqiy ta'limotidagi muvofiqlik, uyg'unlik, ixtilofsiz hayot tarzi, ozor bermaslik, butun

borliqqa muhabbat, murosas va madora bilan yashash tarzini targ'ib etish, barqaror va xavfsizlikni ta'minlaydigan yo'l va vositalardan hozirda g'oyaviy manba sifatida foydalanish muhimdir.

Tadqiqotlardan ko'zatilishicha, mavlaviya ta'limotida bag'rikenglik tushunchasi ilohiy ishq masalasining ustuvorligi asosida namoyon bo'ladi. Bunda "Uyg'unlik" shiori mavlaviya ta'limotining asosiy tamoyili sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, inson bag'rikengligining asosiy qirralari mavlaviya ta'limoti bo'yicha kamolotga yetkazuvchi xislatlarga asoslanadi. Mazkur ta'limotdagi ahloqiy tamoyillar kamolotga yetaklovchi bir qancha tasavvufiy g'oyalar asosida tahlil etilgan bo'lib, unda go'zal axloq insonning kamolot darajasini aks ettiruvchi asosiy mezonligi ko'rsatilgan. Mavlono Rumiy ilmning jamiyatdagi o'rnini, barkamol va komil insonlarni tarbiyalashdagi ahamiyatini to'g'ri tushunib yetdi. Va, olimning ma'naviy sifatleri haqida fikr yuritib, "Olim agar amirlar soyasida olim bo'lishni o'ylamasas, uning bilimi ibtido va intihoda Olloh uchun qilingan bo'ladi"⁴⁴. Alloma, nodonlik, johillik va savodsizlikni qattiq tanqid qiladi, ularni insonning eng tuban illatlaridan hisoblaydi. Rumiy o'z davrining insonparvar mutafakkiri bo'lgan, ahloqiy qarashlarida inson shaxsi va uning fazilatlarini yuksaklikka ko'targan, insoniy qadriyatlarga katta o'rin bergan. Uning ta'lim-tarbiya, xulq-odob to'g'risidagi ibratomoz so'zlari, pand-nasihatlari, o'gitlari O'zbekistonimizda barkamol va yetuk insonni tarbiyalashga yordam berishi shubhasizdir.

Bizningcha, Jaloliddin Rumiy komil inson tarbiyasiga ta'luqli asarlarini o'rganish, tadqiq etish, quruq dalolatlarni topishdan iborat bo'lmasligi kerak. Chunki, Jaloliddin Rumiy asarlari, go'yoki hammaga ma'lum, aslida esa hali juda qorong'u, kam o'rganilgan tasavvufiy-falsafiy asoslarini, xususan, uning komil insonni tarbiyalashga qo'shgan hissasi, shariat, tasavvufga bo'lgan munosabatining favqulodda jihatlarini, oriflik dunyoqarashi va ahloqiy

⁴⁴ Жалолиддин Румий. Ичиндаги ичиндадур. Улуғбек Хамдам таржимаси. Т. Янги аср авлоди. 2003. -Б-11.

pozitsiyasi, davlat, fozil jamiyat, oila va shaxs to'g'risidagi yaxlit nazariyasini chuqur nazariy-tarixiy adekvatlik darajasida tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, allomaning yuqorida keltirilgan qarashlarida izchil tarzda, uning komil inson to'g'risidagi tamoyili ham butun mohiyati bilan namoyon bo'lgan. Avvalo, komillik, Rumiyl fikricha, insonning insoniylik tabiati, imkoniyatlari va ma'naviyati chegaralaridagi komillik bo'lib, buning oliy bosqichi Alloh mohiyati o'z vujudida mavjud bo'lganligi uchun Allohning mukammalligi, jilosi, ziyosini yaraqlagan oynadek aks ettira olishi, uni bevosita tuyish va tan olish, taslim bo'lishdir. Ilm-irfonga erishish, undan bahramand bo'lishdan maqsad, komil inson darajasiga ko'tarilish va uning doimiy yuksaklik darajasini saqlashdir. Bu haqida alloma "Ulug' Olloh insonni bilimli, ilimli va olim qilib yaratgani uchun inson o'z borlig'ining usturlabida vaqti-vaqti bilan Olloh tajallisini va benazir go'zalligini porloq bir holda ko'radi. Bu Jamol mazkur ko'zguni hyech qachon tark etmaydi"⁴⁵. Barkamol avlod orzusi buyuk maqsadimiz ekan, Rumiyning komil insonni tarbiyalash konsepsiyasi – bu, birinchi navbatda, falsafiy masaladir. Falsafada esa komil inson va dunyoqarash tushunchalari ko'zga ko'rinmas tomirlar, yashash, hayot rishtalari bilan aql bovar qilmaydigan darajada o'zviy va o'zluksiz bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Biz yoshlarda bir butun dunyoqarashni shakllantirish, yuksak ma'naviy xislatlarga ega bo'lgan komil insonni tarbiyalashdek vazifani maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, tasavvufiy tadqiqotlarni izchil ravishda olib borish, bugungi kunning ahloqiy manzarasini ko'rsatib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizningcha, insonning bilimdon bo'lishi komillikka yetaklaydi. Va, erkin, mustaqil fikrlovchi komil inson esa kuch-qudratli bo'ladi. Insonga yaxshilik qilish, uni sevish uchun u, kamolotga erishishi kerak. Kamolotga erishishi uchun chin ilohiy va insoniy sevgiga ega bo'lishi kerak. Ana shunda o'z kuchini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'z ijodiy kuchini namoyon qilish

⁴⁵ Жалололдин Румий. Ичиндаги ичиндадур. Улуғбек Хамдам таржимаси. Т. Янги аср авлоди. 2003. Б-20.

orqali odam lazzatlanadi, seva biladi, ezgulikni amalga oshiradi. Ya'ni, unda insoniylik namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim sohasidagi tub o'zgarishlar, erkin va komil inson tarbiyasi jamiyatimizning taraqqiyoti zaminidir. Bu esa butun ijtimoiy borliqda "komillikka erishish samarasini" beradi. Jamiyatimiz tadrijiy yo'l bilan yangi jamiyatga o'tmoqda. Bu bugungi kun liberal demokratiya me'yorlariga to'la mos keladigan, yangi modernizatsiyalashgan jamiyatdir. Bunda an'anadan ko'ra yangiliklar, fan ma'naviyat ravnaqi ustun darajada rivojlanadi. Shuning uchun ham jamiyatimiz tahdid solayotgan ichki va tashqi kuchlarni mardona yengib, yangilik tomon intilaveradi. Shu ma'noda, komil inson butun donishmandlik haqidagi ta'limotga ega bo'lish bilan birga bu bilimlarni insonlarga yaxshilik qilishga qaratadi. Ana shundagina inson o'zining bu dunyoda tutgan o'rnini anglab olishi mumkin. Falsafiy masalalar ichida inson muammosi birinchi o'rinda ekan, uning ichki dunyosi, ma'naviy borlig'ini anglab yetish uchun tushunchalar vositasi yetarli emas.

Xulosa qilib aytganda, ko'p asrlik tariximiz mobaynida umummilliy komillik va butunlikka bo'lgan intilishlar ilk dafa mustaqillik tufayli xalqimizga nasib etdi. Xalqimizning ma'naviy komilligi, millat butunligini tarkib toptirish va rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi va amalga oshirila boshlandi. O'zgarayotgan zamon va yangilangan makon mantig'i xalq harakterida ilgari yetarli rivoj topmagan yangi fazilatlarni tarkib toptirish zaruratini kun tartibiga qo'yayotganligi bois, yurtboshimiz xalqimizni ma'naviy uyg'onish, hushyorlik, atrofga keng nazar tashlash, qiyoslab harakat qilishga da'vat etib kelmoqda.

Umuman, Jaloliddin Rumiy falsafiy-tasavvufiy merosining yosh avlodni komillik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyatiga oid tahlililarimizni yakunlar ekanmiz yuqoridagilardan quyidagi xulosalarga keldik:

- Hozirda biz ko'pgina falsafiy adabiyotlarda komil inson tarbiyasi degan iboralarni ko'p uchratamiz. Komillikning esa xilma – xil talqinlari bor. Jumladan, islomiy ta'limotda komillik timsoli sifatida Haq nazarda tutiladi.

Shuning uchun ham mavlaviya ta'limotida insonning kamolotga erishuvi Haqqa talpinishidir deyiladi. Demak, bundan ko'rinadiki, komil insonni tarbiyalash, moddiy - hayvoniy xirslarni barham ettirib, ilohiy – rahmoniy sifatlarni ko'paytirish orqali olib boriladi.

- Inson hayotining mazmuni masalasi, inson ongli mavjudot sifatida shakllanganidan beri mavjud. O'zini anglagan inson qay darajaga yetmasin bu savol mavjud bo'laveradi. Hayot mazmuni dunyoqarash diqqat markazidagi savoldir, uning javobi inson hayotini belgilaydi. Aytish mumkinki o'z-o'zini anglash ma'no bilan izohlanadi va inson hayotidagi ma'nosiga qarab o'zgaradi. Bu masalani mavlaviya tariqatida yechishga harakat qilingan. Shuningdek, Jaloliddin Rumiy fikricha, komillikka erishish inson yuragidan (qalbidan) chiqishi kerak. Komillikning barcha shakllari inson yuragini jumbushga keltiradigan darajada bo'lsa inson komillik darajasiga yanada ko'tarilib boradi. Inson komil bo'lib tug'ilmaydi, uni ahloqiy ta'lim-tarbiya berish orqali komillik darajasiga olib chiqish mumkin. Insonni komil darajasiga chiqishidagi yo'l o'zun va mashaqqatli, bu esa uning ichki intilishi va ruhiyati bilan bog'liq. Hozirda yoshlarni komillikka erishtirish masalasidagi siyosat va ijtimoiy-madaniy sharoitlar asosini yuksaltirishga ko'maklashish dolzarb ahamiyatga ega.

- Rumiy insonni ilohiy sirdir deydi. Shu ma'noda alloma "Ulug' Olloh orzu va istakni insonning ichiga qo'yadi"⁴⁶ deydi. Mavlono Rumiy o'zining komil inson to'g'risidagi qarashlarida komil insonga insonning jismoniy va ruhoniyl kamolotini uyg'un holda qaraydi. Shuning uchun ham uni allomani komil insonni tarbiyalash g'oyasining konstruktiv tomonlarini hozirgi tarbiya tizimiga ham qo'llash mumkin.

⁴⁶ Жалолиддин Румий. Ичиндаги ичиндадур. Улуғбек Хамдам таржимаси. Т. Янги аср авлоди. 2003. Б-124.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ko‘p asrlik tariximiz mobaynida umummilliy komillik va butunlikka bo‘lgan intilishlar ilk dafa mustaqillik tufayli xalqimizga nasib etdi. Xalqimizning ma'naviy komilligi, millat butunligini tarkib toptirish va rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi va amalga oshirila boshlandi. O‘zgarayotgan zamon va yangilangan makon mantig‘i xalq harakterida ilgari yetarli rivoj topmagan yangi fazilatlarni tarkib toptirish zaruratini kun tartibiga qo‘yayotganligi bois, yurtboshimiz xalqimizni ma'naviy uyg‘onish, hushyorlik, atrofga keng nazar tashlash, qiyoslab harakat qilishga da'vat etib kelmoqda.

Umuman Jaloliddin Rumiy falsafiy-tasavvufiy merosining yosh avlodni komillik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyatiga oid tahlililarimizni yakunlar ekanmiz yuqoridagilardan quyidagi xulosalarga keldik:

- Hozirda biz ko‘pgina falsafiy adabiyotlarda komil inson tarbiyasi degan iboralarni ko‘p uchratamiz. Komillikning esa xilma – xil talqinlari bor. Jumladan, islomiy ta'limotda komillik timsoli sifatida Haq nazarda tutiladi. Shuning uchun ham mavlaviya ta'limotida insonning kamolotga erishuvi Haqqa talpinishidir deyiladi. Demak, bundan ko‘rinadiki, komil insonni tarbiyalash, moddiy - xayvoniy xirslarni barham ettirib, ilohiy – rahmoniy sifatlarni ko‘paytirish orqali olib boriladi.
- Inson hayotining mazmuni masalasi, inson ongli mavjudot sifatida shakllanganidan beri mavjud. O‘zini anglagan inson qay darajaga yetmasin bu savol mavjud bo‘laveradi. Hayot mazmuni dunyoqarash diqqat markazidagi savoldir, uning javobi inson hayotini belgilaydi. Aytish mumkinki o‘z-o‘zini anglash ma'no bilan izohlanadi va inson hayotidagi ma'nosiga qarab o‘zgaradi. Bu masalani mavlaviya tariqatida yechishga harakat qilingan. Shuningdek, Jaloliddin Rumiy fikricha, komillikka erishish inson yuragidan (qalbidan) chiqishi kerak. Komillikning barcha shakllari inson yuragini jumbushga keltiradigan

darajada bo'lsa inson komillik darajasiga yanada ko'tarilib boradi. Inson komil bo'lib tug'ilmaydi, uni ahloqiy ta'lim-tarbiya berish orqali uni komillik darajasiga olib chiqish mumkin. Insonni komil darajasiga chiqishidagi yo'l o'zun va mashaqqatli, bu esa uning ichki intilishi va ruhiyati bilan bog'liq. Hozirda yoshlarni komillikka erishtirish masalasidagi siyosat va ijtimoiy-madaniy sharoitlar asosini yuksaltirishga ko'maklashishi dolzarb ahamiyatga ega.

- Rumi insonni ilohiy sirdir deydi. Shu ma'noda alloma "Ulug' Olloh orzu va istakni insonning ichiga qo'yadi" deydi. Mavlona Rumi o'zining komil inson to'g'risidagi qarashlarida komil insonga insonning jismoniy va ruhoniyl kamolotini uyg'un holda qaraydi. Shuning uchun ham uni allomani komil insonni tarbiyalash g'oyasining konstruktiv tomonlarini hozirgi tarbiya tizimiga ham qo'llash mumkin.

Tadqiqot ko'rsatdiki, Jaoloddin Rumi qarashlarida nafaqat milliy va umumbashariy g'oyalar mujassamlashgan, balki, unda inson ma'naviy kamolotini ta'minlashga xizmat qiluvchi abadiylikka dahldor qarashlar ham o'z aksini topgan.

Rumi ta'limotida ahloqiy tamoyillar kamolotga yetaklovchi bir necha xislatlar asosida tahlil etilgan bo'lib, unda go'zal axloq insonning kamolot darajasini aks ettiruvchi asosiy mezonligi ko'rsatilgan. Shuningdek go'zal axloqni egallashning quyidagi yo'llari tavsiya etilgan:

Inson tabiatida, o'zligida yaxshilik va yomonlik, saodat va shaqovat, nur va zulmat yashiringanligidan inson o'z-o'zini nazorat etib, nafsini jilovlab kamolotga intilishi ahloqiy fazilatlarga olib keladi. Shuningdek, haqiqatga yetish va komil insonni tarbiyalashni maqsad qilib olgan bu allomaning qarashlari va amaliyoti hozirgi kungacha o'z ahamiyatini saqlamoqda. Chunki bizning mustaqil O'zbekistonimizda barkamol inson tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilingan va komil inson milliy g'oyaning asosiy g'oyasi deb qabul etilgan. Insonni o'z-o'zini idora etish, nafsini tanish va

boshqara olishi, nafs tarbiyasi masalasi axloqan fazilatli kishini tarbiyalash uchun muhim. Shu ma'noda, barkamol avlod tarbiyasida Rumiyning komil inson va uni tarbiyalash yo'llarini o'rganish foydalidir. Bularning barchasi Rumiyy ta'limotining nazariy tomonini ifodalaydi. Uning amaliyot, ayniqsa hozirgi mustaqillik davri voqeyeliklari bilan bog'liq nihoyatda dolzarb jihatlarini hisobga olib quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

Bugungi madaniy dunyo butun insoniyat bilan hamnafas bo'lgan kishini ardoqlaydi. Buning uchun har bir inson o'z-o'zini anglashi o'z his-tuyg'ularini boshqara bilishi, o'z fikri, qiyofasi, qarashiga ega bo'lishi lozim. Chunki o'zini sevmagan, qadrlamagan o'zgani sevib qadrlay olmaydi. Bu jarayonda mavlaviya tariqatidagi inson tarbiyasi usul va yo'llaridan foydalanish zarur. Mustaqil O'zbekistondagi shaxsni erkinlashtirish va unda bag'rikenglik g'oyasini shakllantirish jarayonida Jalololiddin Rumiyy qarashlaridan foydalanish muhimdir. Jalololiddin Rumiyy insonni ma'naviy kaolotini ta'minlashdagi tasavvufiy g'oyalari milliy g'oyaning diniy-ma'rifiy, falsafiy ildizlaridan biridir. Bu allomaning bunyodkor g'oyalari "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish" kabi milliy istiqlool mafkurasining bosh g'oyasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Undagi mehnatsevarlik, fidoiylikka undovchi bunyodkor fikrlar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, millatlararo totuvlik, ijtimoiy hamkorlik, komil inson, diniy bag'rikenglik g'oyalarini insonlar qalbi va ongiga singdirishga asos bo'ladi. Mana shu g'oyalarni hayotga tadbiq etishda mavlaviya ilmiy-jamoatchilik markazini tashqil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1996;
2. Karimov I.A. Biz kelkijagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1999;
3. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. 8-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2000;
4. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2001;
5. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashamiz. 10-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2002;
6. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. 12-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2004.
7. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va halqimiz hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. 15-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2007.
8. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
9. Karimov I.A. BMT Bosh Assambleyasining mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan oliy darajadagi yalpi majlisdagi nutqi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
10. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonosada. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
11. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yanada yuksaklikka ko'taradigan yil bo'ladi // Xalq so'zi, 2013 yil 20 yanvar.
12. Karimov I.A. Tinchlik va osoyishtalik – barcha yutuq va marralarimizning asosidir. Prezident Islom Karimovning 9 – may – Xotira va qadrlash kuni

munosabati bilan ommaviy axborot vositalari vakillari bilan suhbat // Xalq so'zi, 2013 yil 10 may.

13. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.

O'zbekiston Respublikasi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni

Qo'shimcha manbalar

1. Boltaboev H. "Masnaviyi sharif" ma'naviyati: [Mavlono Jaloliddin Muhammad binni Bahouddin Valad Rumiy (1207-1273)ning "Ma'naviy masnaviy" kitobi haqida] //Jahon adabiyoti.-2001.-№12.-B.162-166.
2. Mahkam Asqar. Mavlono uchun meni kechiring... [Mahjuriy: bir ko'ngil suhbat] //Guliston.-1998.-№5.-B.62.
3. Mahmudov T. Ilohiyot bag'rida hayot nafasi: [Shoir Jaloliddin Rumiyning ijodiy faoliyati] //Guliston.-2000.-№5.-B.18-23.
4. Muhiddin Abdurasul. Kunyoda Rumiy ruhi shod bo'ldi: [2007 yil - Xalqaro Mavlono Rumiy yili] //Hurriyat.-2006.-20 dek.
5. Orif Usmon. Mavlaviya: Tasavvuf tariqatlari: [O'rta Osiyo-lik tasavvufi olimi, shoir Mavlono Jaloliddin Rumiy -Balxiy (1207-1273)ning "Masnaviyi ma'naviy" asari haqida] //Muloqot.-1998.-№5.-B.46-48.
6. Rumiy Jaloliddin. Ilohiy ishq suratlari /Miraziz A'zam tarj. //Saodat.-1995.-№6.-B.20-21.
7. Rumiy Jaloliddin. Ichindagi ichindadur: Meros va qadriyatlarimiz //Sharq yo'ldo'zi.-1995.-№3.-4.-B.182-199.
8. Rumiy Jaloliddin. Ichindagi ichindadur: Falsafiy-ma'rifiy nashr /Ulug'bek Hamdam tarj.-T.: Yangi asr avlodi, 2001.-199 b.

9. Rumiyl Jaloliddin. Ma'naviy masnaviy: Kulliyot J.1. K.1. /(Tarjima sharhi bilan; Tarjimon Asqar Mahkam; Mas'ul muharrir T.Mahmudov.-T.: Sharq, 1999.-368 b.
10. Rumiyl Jaloliddin. Masnaviy ma'naviy /Forsiydan O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol tarj; O'zR Maxnirat nom. O'rta Osiyo xalqlari tarixi in-ti.-T.: Tehron, Fan, 2003.-K.3-T.: Tehron, 2003.-432 b.
11. Rumiyl Jaloliddin. Masnaviy //Guliston.-1998.-№2.-B.49-55; №4.-B.49-55; №6.-B.52-57.
12. Rumiyl Jaloliddin. Masnaviy: (Meros) (Davomi. Boshi o'tgan sonlarda] //Guliston.-1999.-№5.-B.56-61; №6.-B.56-61.
13. Rumiyl Jaloliddin. Masnaviy ma'naviy: [Zamonlarni duo qilguvchi voiz hikoyati, Kundo'zi bozor o'rtasida chiroq tutib aylangan rohib hikoyati: Rivoyat] /Forschadan Abdulatif Muhammad tarj. //O'zbekiston adabiyoti va san'ati.-2004.-30 iyo'l.
14. Rumiyl Jaloliddin. Sen bor bo'lsang...: G'azallar /Olim Bo'ri tarj., Ruboiylar... /Ergash Ochil tarj. //Jahon adabiyoti.-1997.-№5.-B.173-180.
15. Rumiyl Jaloliddin. Uni bir gul holiga keltir: [She'r] //Sog'lom avlod uchun.-2003.-№1.-B.44-45.
16. Rumiyl Jaloliddin. Hikmatlar /Jamol Kamol tarj. //Muloqot.-2001.-№4.-B.38; №3.-B.15.
17. Sultonmurod Olim. Mavlonolar mavlonosi: [Jaloliddin Rumiyl hayoti va faoliyati haqida] //O'zbekiston adabiyoti va san'ati.-2004.-4 iyun.
18. Toirov M. Oriflar sultoni /Jaloliddin Rumiyl tavalludi- ning 800 yilligi oldidan //O'zbekiston adabiyoti va san'ati.-2007.-16 mart.